

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

XUDAYBERDIYEVA ADOLAT SOBIRJON QIZI

**“DAVLATNING BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI
JAMG‘ARMALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO‘NALISHLARI”**

5230600 – “Moliya” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

Fakultet dekani

_____ dots. D.R.Rustamov

“ ____ ” _____ 2018 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

“Moliya” kafedrasi mudiri

_____ prof. T.S. Malikov

“ ____ ” _____ 2018 y.

Bitiruvchi: 5230600 – “Moliya” ta’lim
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

A.S.Xudayberdiyeva _____

Ilmiy rahbar: _____ k.o‘q.Tojibekova D.

TOSHKENT–2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MAQSADLI JAMG`ARMALARINING NAZARIY – HUQUQIY ASOSLARI.....	6
1.1. Davlat maqsadli jamg'armalarining iqtisodiy mohiyati, vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari.....	6
1.2. Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining tashkil etish faoliyatining huquqiy asoslari.....	14
1-bob bo'yicha xulosa.....	23
2-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MAQSADLI JAMG`ARMALARI FAOLIYATINING AMALDAGI HOLATI.....	25
2.1. O'zbyekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasi faoliyati tahlili.....	25
2.2. O'zbyekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l fondi faoliyati tahlili	46
2-bob bo'yicha xulosa.....	59
3-BOB. IQTISODIY ISLOHATLARNING CHUQURLASHUVI SHAROITIDA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	61
3.1. Davlat maqsadli jamg'armalari moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda xorij tajribalari.....	61
3.2. Davlat maqsadli jamg'armalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari.....	68
3-bob bo'yicha xulosa.....	75
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	77
FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO'YXAT.....	80

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda har qanday davlatda tashkil etiladigan turli xil fondlar, xususan, byudjetdan tashqari jamg'armalar shu mamlakat iqtisodiyotida eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ularning samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sishning sifatiga va mamlakat aholisining ijtimoiy farovonlik darajasiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aynan shuning uchun ham keying yillarda Davlat byudjeti masalalariga (o'z ornida, muammolariga) katta e'tibor bilan qaralayapti.

Mamlakatimizda ham davlat maqsadli jamg'armalarida to'planayotgan moliyaviy resurslar iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish va isloh etish sharoitidek ayni paytda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, ular tegishli sohalar vazifalarining bajarilishini ta'minlab kelmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Jami investitsiyalarning 67 foizidan ortig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va davlatning maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan shakllantirilmoqda"¹. Ayni damda, byudjetdan tashqari jamg'armalar oldiga qo'yilgan asosiy maqsad - ijtimoiy yo'naltirilgan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan jamiyatni barpo etishdir. Shunday ekan, byudjetdan tashqari jamg'armalar mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning sotsial sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Xususan, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida alohida o'rin egallaydigan davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjeti, xususan davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar faoliyati va ularning hozirgi holati, shuningdek, ushbu sohada bartaraf etilishi lozim bo'lgan ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 29-dekabrda PQ №3454 sonli mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari bo'yicha, mo'jallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \\Xalqso'zi.2018 yil 19 fevral.

masalalariga chuqurroq yondashishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Negaki, davlat maqsadli vabyudjetdan tashqari jamg'armalari mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishda moddiy-moliyaviy asosni tashkil etadi va mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlari bilan byudjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi. Shunday ekan, bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi nihoyatda dolzarbdir.

Bizga ma'lumki, juda qadimdan kishilik jamiyati taraqqiy etib borar ekan, insonlar ma'lum maqsad va rejalarni ko'zlagan holda o'zlari alohida yoki jamoaviy tarzda turli xil jamg'armalar tashkil qila boshlashgan va vaziyat taqozosi bilan ulardan foydalanishgan. Bora-bora bu amaliyot taraqqiy topib, jamg'armalar aynan bir maqsadda hamda ma'lum davriy ketma-ketlikda shakllantirila boshlangan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining predmeti. Davlatning maqsadli jamg'armalari tarkibidagi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l jamg'armasi daromadlarining shakllanishi hamda ushbu mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari bitiruv malakaviy ishimizning predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining obyekt. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Moliya Vazirligi va ularning qoshida tashkil etilgan maqsadli jamg'armalarning amaliy ma'lumotlari, shuningdek, xorijiy manbalardan olingan tahliliy ko'rsatkichlar tadqiqotimiz ob'yekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashda tutgan ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish hamda zarur xulosalar chiqarish, shuningdek, ushbu sohada mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali choralarini qo'llash bo'yicha takliflar berish, jahon tajribasini mamlakatimizda qo'llash shart-sharoitlari borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- davlatning maqsadli jamg`armalari iqtisodiy mohiyatini va vazifalarini ochib berish;
- davlatning maqsadli jamg`armalari tashkiliy-huquqiy asoslarini chuqurroq o`rganish;
- ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg`armalarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish masalalari hamda ularning mamlakat ijtimoiy siyosatini olib borishdagi ahamiyatini ochib berish;
- iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg`armalarining iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonidagi ishtirokini oshirish shart-sharoitlarini tahlil qilish;
- davlat maqsadli jamg`armalar faoliyatini samarali tashkil etish bo`yicha mahalliy va xorij tajribasidan kelib chiqqan holda taklif va tavsiyalar berish;

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishitarkiban kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi 10 ta jadval va 9 ta rasmdan tashkil topgan. Umuman olganda bitiruv malakaviy ishi 83 betdan iborat.

1-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARINING NAZARIY – HUQUQIY ASOSLARI

1.1 Davlat maqsadli jamg'armalarining iqtisodiy mohiyati, maqsad va vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakat miqyosida turli shakldagi moliyaviy resurslarning yetarlilik darajasi jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy murakkabliklar va moliyaviy-iqtisodiy tanglik holatlaridan halos etuvchi manba sifatida ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda har qanday davlat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – shubhasiz, davlat maqsadli jamg'armalarining faoliyatidan unumli foydalanish hisoblanadi. Umuman olganda, davlat maqsadli jamg'armalari - davlatning alohida xarajatlarini moliyalashtirish uchun mamlakatning byudjet tizimi tarkibiy qismi sifatida jamlanadigan mablag'lar bo'lib, ularning maqsadli yo'naltirilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq shakllantirilgan jamg'armalardir. Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda, byudjetdan tashqari jamg'armalarda bir qator o'ziga xos ta'riflar berib o'tilgan. Bu kabi jamg'armalarning iqtisodiy mohiyatini to'laroq ochib berishda taniqli iqtisodchi olimlar o'zlarining fikrlarini bildirib o'tishgan.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar - bu ba'zan ijtimoiy ehtiyojlarni moliya bilan ta'minlash uchun davlat tomonidan jalb qilinadigan va operativ mustaqillik asosida kompleks ravishda sarflanadigan moliya resurslarini qayta taqsimlash va foydalanish shaklidir. G'arb mamlakatlarida bundan jamg'armalar soni 30 tadan 80 tagacha yetishi mumkin.² Bunda byudjetdan tashqari jamg'armalarning hukumat ta'siridan holiligi va moliyaviy jihatdan mustaqilligiga urg'u berib o'tilgan. Biroq, bu omil davlatning iqtisodiy va siyosiy holatidan kelib chiqqan holda bir biridan farq qilinishi mumkin. Sababi, post industrial davlatlarda bozor iqtisodiyoti deyarli shakllanib bo'lgan hamda moliyaviy institutlar o'z-o'zini mustaqil idora qila oladi. Shuningdek, ular davlatning byudjet-soliq siyosatini

²Поляка Г.Б. Финансы. – М.:Юнити – Дана. 2008. – 376 стр.

yuritishida ham bevosita muhim ishtirokchi hisoblanadilar. Aksincha, bozor iqtisodiyoti hali to'liq shakllanmagan yoki unda davlatning ishtiroki va nazorati saqlanib qolgan davlatlarda bu kabi jamg'amalar bevosita hukumat nazorati ostida faoliyat olib boradilar.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari ixtiyoridagi qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir. Ular har bir alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Bu jamg'armalarni moliyaviy mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va resurslardan maqsadli yo'lda foydalanishi bevosita moliyaviy me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi.

Odatda, davlat maqsadli jamg'armalari iqtisodiy kategoriya sifatida, jamlanma byudjet tushunchasiga chambarchas bog'liq holda ifoda etiladi. Sababi, byudjetdan tashqari fondlarda jamlanadigan mablag'lar, o'z o'rnida jamlanma byudjet mablag'larining tarkibiy qismi hisoblanadi. Demak, jamlanma byudjet - davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlari uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.³

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib quyidagicha fikr bildirishimiz mumkin. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari - bu yuqori va mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyoridagi qat'iy maqsadli xarakterga ega bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari har bir davlat moliya tizimining alohida ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Ularda moliyaviy mablag'larning shakllanishi, taqsimlanishi va mavjud resurslardan maqsadli foydalanilishi bevosita moliyaviy me'yoriy-huquqiy asos bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari ijtimoiy-iqtisodiy

³Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. - М.: "Вузовский учебник". 2011. -224 с.

xususiyatiga ko`ra, muayyan bir ijtimoiy qatlam yoki investitsion loyiha ehtiyojlarini nazarda tutib mamlakatda shakllantirilayotgan milliy daromadni qayta taqsimlash orqali tashkil etiladi. Shunday qilib, davlat umumjamiyat ahamiyatiga molik bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni o`z vaqtida va to`liqligicha amalga oshirish uchun jismoniy va yuridik shaxslar ixtiyorida shakllanayotgan moliyaviy resurslarning bir qismini byudjetdan tashqari davlat jamg`armalariga davlat moliyasining taqsimlash funksiyasi orqali jalb qiladi.

Tarixiy ma'lumotlarga e`tibor beradigan bo`lsak, byudjetdan tashqari davlat jamg`armalarining dastlabki shakllari hozirgi davlatchilikning yagona markazlashgan fondi hisoblangan davlat byudjetidan muqaddam maxsus fondlar ko`rinishida shakllangan. Ma'lumki, davlatning faoliyat ko`lami kengaygan sari uning turli xil xarajatlarga nisbatan talabi ham ortib boraverdi. Ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat yoxud uning vakolatiga ega bo`lgan muayyan hokimiyat organi moliyaviy mablag`larni maxsus fondlarda markazlashtirgan va maqsadli obyektlarni moliyalashtirish uchun yo`naltirgan.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, o`sha paytlar markazlashgan davlat jamg`armalari davr taqozasi talabiga muvofiq, vaqtinchalik xarakterga ega bo`lgan. Ya'ni davlat kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirib, moliyalashtirishni yakuniga yetkazgach, ushbu jamg`armalar faoliyati o`z-o`zidan tugatilgan. Shu sababdan ham, maxsus jamg`armalarning miqdori va shakli doimo o`zgarib turgan. Ya'ni davr talabivamuayyan zaruriyatdan kelib chiqib ehtiyoj sezilmagan jamg`armalar tugatilgan, aksincha yangilari esa tashkil etilgan. Lekin tarixiy jarayon shuni namoyon qilyaptiki, muayyan mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish sohalari, qolaversa mamlakatning hududi kengayishi munosabati bilan byudjetdan tashqari davlat jamg`armalarining miqdori ham, hajmi ham o`shish xususiyatiga ega bo`lgan. O`z navbatida, byudjetdan tashqari davlat jamg`armalari miqdorining ko`payishi o`ziga xos murakkablik va noqulayliklarni tug`dirgan.

Xususan, jamg`armalar qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo`lgani sababli, ayrim jamg`armalarda moliyaviy resurslar keragidan ortiq bo`lsa, ayrimlarida yetishmovchiliklar yuzaga kelgan. Bundan tashqari, davlat ularni boshqarish va

muvoqilash tirgan holda moliyalashtirish uchun qo`shimcha moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilishiga to`g`ri kelgan. Bu o`z o`rnida, jismoniy va yuridik shaxslarga qo`shimcha moliyaviy yuk hisoblanib, ular o`rtasida ma'lum bir noroziliklarning paydo bo`lishiga ham turtki bo`lgan. Bunday salbiy holatlarni oldini olish uchun markazlashgan davlat shakllanishiga zarurat tug`ilgan. Markazlashgan davlatning qaror topishi esa, bir qator davlat jamg`armalarini uyg`unlashtirib bir necha muammolarni oldini olish imkoniyatini yaratdi. Jumladan, bir jamg`armada ortiqcha bo`lgan moliyaviy resurslarni ikkinchi bir jamgarmada yetishmayotgan mablag`lar o`rniga mobilizatsiya qilish imkoniyati hosil bo`la boshlagan. Mana shunday har xil davlat jamg`armalarining birlashishi asosida yirik bir markazlashgan fond, ya'ni davlat byudjetini tashkil etilishiga asos solindi.

Asta-sekin davlat byudjeti har tomonlama mustahkamlanib borib, mamlakatning oliy organi uni ko`rib chiqib tasdiqlagandan keyin qonuniy kuchga kirib, ijro etish majburiyati sezila boshlandi.

Byudjetdan tashqari davlat jamg`armalari o`z faoliyati davomida boshqa tashkilot va shaxslar bilan bir qator moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Alohida mamalkatda davlat byudjetidan tashqari davlat jamg`armalarining mavjudligi, jamgarma ichida, jamgarmalararo va moliya tizimining boshqa bo`g`inlari o`rtasida murakkab hamda ko`p qirrali moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishni taqozga etadi. Amaliyotda moliyaviy munosabatlar bir tomonlama, ikki tomonlama va ko`p tomonlama bulishi mumkin.

Bir tomonlama moliyaviy munosabatlar. Odatda jamgarmaning daromadlari shakllanishida yoki xarajatlarni amalga oshirishda namayon bo`ladi. Masalan, ko`pchilik davlatlarda valyuta fondining tashkil etish manbasi markazlashgan byudjet mablag`laridan qaytarib berilmaydigan subsidiya shaklidagi resurslar hisobidan shakllanadi. Bir tomonlama moliyaviy aloqalar jamg`arma daromadining bir qismini moliya tizimining boshqa bo`g`iniga dotatsiya yoki subsidiya sifatida o`tkazganda ham vujudga keladi. AQSHda tashkil etilgan Pul fondi maxsus

solliqlar hisobiga shakllantiriladi, ammo daromadlar xarajatlardan ortiq bo`lgan davrlarda Federal byudjetga zayom shaklida taqdim qilinadi.

Ikki tomonlama moliyaviy munosabatlar. Amaliyotda moliyaviy resurslarning oqimi jamg`armalararo va moliya tizimining boshqa bo`g`inlari o`rtasida vujudga keladi. Masalan, Pensiya jamg`armasi nafaqat maxsus ajratmalar hisobiga tashkil etiladi, balki respublika byudjetidan olayotgan dotatsiya hisobidan ham qisman shakllanadi. Bir vaqtning o`zida, agar jamg`arma daromadida aktiv saldo vujudga kelsa ortiqcha moliyaviy resurslar hisobiga qisqa muddatli davlat g`azna qimmatli qog`ozlarini xarid qilib byudjet kamomadini kamaytirish yoxud davlat byudjetiga kreditor sifatida ham namayon bo`lishi mumkin.

Ko`p tomonlama moliyaviy munosabatlar. Bunda bitta byudjetdan tashqari davlat jamgarmasi bir vaqtning o`zida bir nechta jamg`armalar hamda moliya tizimining boshqa bo`g`inlar bilan o`zaro aloqada bo`ladi. Ya'ni pul mablag`lari turli xil va rang-barang yo`nalishlarda harakat va oqimda bo`ladi.

Byudjetdan tashqari davlat jamg`armalari o`z faoliyat ko`lamidan kelib chiqib, bir qator vazifalarni amalga oshiradi. Umuman olganda, vazifalarning ko`lami ko`p. Ammo, eng asosiylari sifatida quyidagilarni sanab o`tish mumkin. Xususan:

- iqtisodiyotning ustuvor sohalari qo`shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash. Bunda ayrim tarmoqlarga xos bo`lgan va faqat shu sohani qamrab oluvchi fondlar nazarda tutiladi. Misol uchun, ekologiya fondlari, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) va boshqalar shular jumlasidandir;

- har xil maxsus fondlar ko`magida aholiga sotsial xizmatlar ko`lamini kengaytirish. Ya'ni davlat byudjeti qamroviga kirmaydigan ayrim tarmoq va sohalarni maxsus fondlar tashkil etish orqali rivojlantirib borish va buning negizida injtimoiy infratuzilmani yaxshilash.

Byudjetdan tashqari davlat jamg`armalarining iqtisodiy mazmuni va tashkil etish zarurati tugilgan dastlabki davrlardan boshlab ular ikkita katta guruhga bo`lingan. Bular:

1. Ijtimoiy xususiyat kasb etuvchi jamg`armalar. Bunda jamg`arma davlatning ijtimoiy siyosatini olib borishda tarkibiy qism sifatida ishtirok etadi va aholi ehtiyojlarini qondirishga yo`naltirilgan bo`ladi. Bu kabi jamg`armalarning tarkibiga, Pensiya jamg`armasi. Bandlikni qo`llab-quvvatlash davlat jamg`armasi. Maktab ta'limi jamg`armasiva boshqalar.

2. Iqtisodiy xususiyat kasb etuvchi jamg`armalar. Bu kabi jamg`armalarga mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyot tarmoqlari diversifikatsiyasi jarayonida qaysidir tarmoq yoki soha (qurilish, rekonstruksiya, kapital ta'mirlash, va shu kabilar) ni moliyaviy-iqtisodiy jihatdan qo`llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladigan jamg`armalarni misol qilib keltirish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l jamg`armasi. Tiklanishva taraqqiyot jamg`armasi va boshqalar.

Davlat maqsadli jamg`armalari huquqiy maqomiga muvofiq ham klassifikatsiyalanadi. Odatda, federativ siyosiy tuzumga asoslangan davlatlarda uchtaga; Unitar siyosiy tuzumga asoslangan mamlakatlarda esa ikkitaga bo`linadi. Jumladan, federativ mamlakatlarda:

1. Federal boshqaruv mulkida bo`lgan davlat jamg`armalari.
2. Federatsiya tarkibida bulgan shtat, respublika, zemel, kontanta va boshqalar mulkidagi mintaqaviy jamg`armalar;
3. Mahalliy boshqaruv qaromog`idagi mahalliy ahamiyat kasb etuvchi jamg`armalar.


Unitar tuzumdagi davlatlarda:

1. Respublika tasarrufida bo`lgan jamg`armalar.

Bunda jamg`arma respublika ahamiyatiga molik tarmoq va soha miqyosida tashkil etiladi hamda bevosita hukumatning yuqori boshqaruv organiga, jumladan vazirlik, qo`mita yoki ularning hududlardagi boshqarmalariga bo`ysunadi. Demak, ularning daromadlari manbayi ham aynan respublika miqyosida jamg`arailadigan majburiy yig`im va soliqlardan ajratmalar negizida shakllanadi. Masalan, Pensiya jamg`armasi, Bandlik jamg`armasi va boshqalar.

2. Mahalliy hokimiyat ixtiyori va boshqaruvida bo`lgan jamg`armalar.

Davlat maqsadli jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy xarakter kasb etishiga ko'ra tasniflanishi quyidagi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Davlat maqsadli jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi⁴

⁴Qosimova G.A. Davlat maqsadli jamg'armalar. O'quv qo'llanmaga asosan tayyorlandi.

Yuqoridagi rasmda ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan jamg'armalarning o'zaro bog'liqlik jihatiga urg'u berilgan. Ular alohida alohida o'z funksiya va vazifalarini bajaribgina qolmasdan, biroq yakunda byudjet taqchilligini tartibga solish manbasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat maqsadli jamg'armalarning keyingi yillarda taraqqiy topib borayotganiga qaramasdan, ularning klassik - davlat byudjeti to'liq qamrab olmagan sohalarni moliyaviy qo'llab quvvatlash – funksiyasi saqlanib qolmoqda va bu jihat, maqsadli tushumlar va jamg'armalar mohiyatini yanada chuqurroq o'rganish ahamiyatini oshirmoqda.

Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari bevosita davlat ixtiyorida bo'ladi. biroq avtonom (alohida) shaklda faoliyat yuritadi va davlat tomonidan moliyaviy resurslarini dafatan olib qo'yishga ruxsat berilmaydi. Ularning davlat byudjeti va unga tenglashtirilganlardan farqli tomoni shundaki, moliyaviy resurslaridan foydalanishi qat'iy maqsadli xususiyatga ega. Amaliyotda har bir byudjetdan tashqari davlat jamg'armasining moliyaviy manbalari turlicha shakllantiriladi. Shundan kelib chiqib, ularni asosiy tasniflanishini shartli ravishda quyidagi guruhlardan tashkil topishi jahon tajribalarida namoyon bo'lmoqda. Jumladan:

- mos ravishdagi jamg'armalar uchun davlat tomondan o'rnatilgan maxsus maqsadli soliqlar, yig'imlar va ajratmalar;
- xo'jalik subyektlarining iqtisodiy-moliyaviy samarasidan ajratmalar;
- davlat byudjeti mablag'lari;
- jamg'armalarni yuridik shaxs sifatida tijorat faoliyati(moliya bozori)dan olgan foydalari;
- tijorat banklari kredit resurslari;

Davlat maqsadli jamg'armalari moliyaviy manbalari qatoriga, shuningdek, homiylik ajratmalari, beg'araz yordamlar va boshqalarni kiritish mumkin. Daromadlarning xilma-xil manbalardan shakllanishi esa, bir jihatdan ushbu jamg'armalar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, chunki daromadlar manbalaridan birida uzilishi kuzatilsa jami daromad salmog'iga katta ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

1.2 O'zbekistonda Davlat maqsadli jamg'armalarining tashkiliy-huquqiy asoslari

Bugungi kunda, dunyoning juda ko'p davlatlarida idoralar, vazirliklar va ulkan xo'jalik subyektlari ixtiyorida ham ko'plab jamg'armalar tashkil etilgan. Rivojlangan mamalkatlarning ilg'or tajribalariga tayanib aytish mumkinki, odatda, byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari shartli ikki yo'l orqali tashkil etiladi. Xususan:

1. Ma'lum bir xarajatlarini davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan muhim umumjamiyat ahamiyatini kasb etuvchi muammolarni hal etish uchun tashkil etiladi.

2. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armasini shaxsiy (o'zlik), maxsus ajratma va badallar mablag'lari hisobidan tashkil etiladi.

Masalan, qator davlatlarda daromadi cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini moliyavny qo'llab quvvatlash maqsadida davlat byudjeti ko'magida maxsus sotsial sug'urta fondlari tashkil etilgan. Boshqa byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarini tashkil etish muqaddam ma'lum bo'lmagan, ammo ishlab chikarishning rivojlanishi, xizmat kursatish ko'lamini kengayishi va moliyaviy siyosatni o'zgartirish natajasida paydo bo'ladigan muammolarni maqsadli va manzilli bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladigan. Shunday vaziyat shakllanganda hukumat byudjetdan tashkari davlat jamg'armasini tashkil etish uchun maxsus qaror qabul qiladi. Bizda ham yuqorida qayd etilgan vaziyatga o'xshash holat vujudga kelishi va mamlakatni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi munosabati bilan 2004-2009 moliya yillarini o'zida qamrab olgan byudjetdan tashkari "Maktab ta'lim jamgarmasi tashkil etildi.

Umuman olganda, har qanday byudjetdan tashqari davlat jamg'armasi maqsadli xususiyatga ega bo'lib, odatda uning nomida qanday maqsad uchun tashkil etilayotganligi aks etadi. Masalan, Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va h.k.

Mamlakatimizda ham yuqorida ta'kidlangan shart-sharoitlar negizida bir qator maqsadli fondlar tashkil etilgan bo'lib, ularning faoliyat ko'lamini oshirishga yildan-yilga katta e'tibor berib kelinmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakatda davlat byudjetini mustahkamlash bilan birga, byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarini ham tashkil etish zarurati yuzaga kela boshladi. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarini shakllantirishga bir qator omillar ta'sir etadi, albatta. Shulardan eng asosiylari bulib quyidagilar hisoblanadi. Jumladan:

- iqtisodiyot qisman nobarqaror bo'lgan bir sharoitda tijorat, shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash zarurati paydo bo'lgan bir paytda ularning moliyaviy operatsiyalarini rag'batlantirish uchun davlat boshqaruv organlari ortiqcha moliyaviy resurslar hisobidan qo'shimcha, yangi shakldagi davlat jamg'armalari tashkil etadi;

- davlat byudjetidan holi (mustaqil) bo'lgan byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari muayyan bir muammoni bartaraf etish yoxud mavjud muammolar ko'lamini qisqartirishga bevosita yo'naltirilgan bo'lib, davlat tomonidan katta e'tiborga molik bo'ladi. Aynan davlat maqsadli jamg'armalari qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo'lib, ularning moliyaviy resurslarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishni davlat tomonidan samarali nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi;

- byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari muayyan bir sharoitlarda, ya'ni daromadlariga nisbatan xarajatlari kam bo'lgan hollarda, ortiqcha mablag'lardan davlat byudjeti kamomadini kredit shakli ko'rinishda qisqartirish yoki moliyaviy bozordan foiz va dividend shaklida manba olib, daromadlar hajmini yanada kengaytiradi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari tashkil etish va ularni davr talabidan kelib chiqqan holda davrga moslashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. 2002 - yil moliya yiliga qadar byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari muxtor ravishda moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan maqsadli yo'nalishlarda

foydalanish keng qo'llanib kelinar edi. Ammo ayrim davlatning maqsadli fondlarida o'z vaqtida va to'liqligicha moliviy resurslarni shakllanmaganligi, aholiga berilayotgan va tarqatilayotgan moliyaviy resurslarda kechikish, uzilgan hollari tez-tez uchray boshladi. Buni oldini olish maqsadida 2002 - yildan boshlab ulkan umumjamiyat ahamiyat kasb etuvchi ayrim davlatning maqsadli fondlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasarrufida bo'lishi ma'qul topildi.

Keyinchalik, 2013-yil 26-dekabrda mamlakatimiz amaliyotida yangilik bo'lgan "Byudjet kodeksi" qabul qilinishi munosabati bilan, ushbu qonun o'z kuchini yo'qotdi. Ushbu kodeks endilikda, mamlakatimiz byudjet tizmi byudjetlari uchun tayanch huquqiy asosga aylandi. Shuningdek, yangi kodeksda byudjet tizimi byudjetlari bilan bog'liq bir qator o'zgarish va qo'shimchalar qayd etildi. Jumladan, davlat maqsadli jamg'armalar tushumchasi bir qator kengayib, huquqiy maqomi mustahkamlandi.

Demak, Byudjet kodeksining 6-bobi aynan "Davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari" deb nomlanib, ushbu soha rivoji yo'lida ulkan qadam tashlandi. Endilikda, davlat maqsadli jamg'armalari qatoriga bir qator yangi jamg'armalar qo'shib, mavjudlarining tashkiliy asosi qaytadan ko'rib chiqildi. Davlat konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibida Davlat byudjeti hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi byudjeti bilna bir qatorda Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, kodeksning 36-moddasida quyidagilar davlat maqsadli jamg'armalari sifatida ko'rsatib o'tilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi;

- Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi;

- O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot

muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi.⁵

Kodeksda, shuningdek, har bir davlat maqsadli jamg'armalarining faoliyat sohasi, maqsadi va vazifalari, boshqaruv organi, byudjet loyihasi va hisobotlarini tuzish tartibini, qolaversa, daromadlar manbalari hamda xarajatlar yo`nalishlari bilan bog`liq me'yorlar ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining yuqori boshqaruv organi Jamg'armaning Kuzatuv kengashidir. Ushbu jamg'arma bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot sohasida eng muhim ahamiyatga ega bo`g`in hisoblanadi. Jamg'arma faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida nafaqat mavjud resurslardan samarali foydalanish, balki mavjud muammolarni bartarf etishga ham katta e'tibor berilmoqda. Prezident Shavkan Mirziyoyev o`z nutqida ta'kidlaganidek, "Soliq-byudjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hajmi, yirik investitsiya loyihalari va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni moliyalashtirish – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi, uning huzuridagi jamg'armalar va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi"⁶.

⁵O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 2013-yil 26-dekabr, 36-modda

⁶Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". 2017-y.

Byudjet kodeksining 38-moddasida qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l jamg'armasi majburiy to'lovlardan va boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi, keyinchalik ulardan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish dasturlarini (loyihalarini) hamda ularning lozim darajadagi texnik holati va o'tkazish qobiliyatiga erishishga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasining yuqori boshqaruv organi Jamg'arma kengashidir.

Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini yanada rivojlantirish, mavjud muammo va kamchiliklarni yanada samarali bartaraf etish maqsadida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 14-fevral kuni PF-4954 sonli "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini imzoladi. Ushbu farmonga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysundirildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasiga ushbu jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bir qator vazifalar yuklatildi.

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi davlat aktivlarini xususiylashtirishdan, shuningdek, davlat mulki bo'lgan korxonalarni, xo'jalik jamiyatlarining ustav jamg'armalaridagi aktsiyalarni (ulushlarni), yer uchastkalari va boshqa mol-mulknini realizatsiya qilish, ustav jamg'armalarida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarini tugatishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi xarajatlar moliyalashtirilishini ta'minlash uchun yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar (YaIT umumiy summasining 0,1 % i miqdorida) bilan bir qatorda belgilangan miqdordagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar hamda tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, jihozlashga (to'liq jihozlashga) yo'naltiriladigan majburiy ajratmalar, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar hamda qonun hujjatlariga muvofiq nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlar va manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi. Ushbu jamg'armaning yuqori boshqaruv organi Jamg'armani boshqarish kengashi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi har yili tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining asosiy parametrlari doirasida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'lanadigan yagona yer solig'i bo'yicha tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, shuningdek, byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag'lar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi. Ushbu mablag'larsug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga doir dasturlarni (loyihalarni) hamda meliorativ ob'ektlarning lozim darajadagi texnik holatini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga, shuningdek meliorativ texnika olishga yo'naltiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining yuqori organi Jamg'arma kengashidir.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'lari bilan bir qatorda, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi. Jamg'arma resurslari oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar

tayyorlash sifatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga sarf qilinadi. Ushbu - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini boshqarish vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti loyihsini tuzish va taqdim etish tartiblari ham Byudjet kodeksida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va moliya yili uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi asosida tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga bir moliya yilidan ortiq muddatga tuzilgan davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini qabul qilish to'g'risida taklif kiritishga haqliligi ham belgilab qo'yilgan. Qolaversa, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini tuzish:

- byudjet so'rovini tuzish tartibini yuborishni;
- byudjet so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni;
- byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;
- byudjetnomani ishlab chiqishni nazarda tutadi.⁷

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalarini tuzish uchun mas'ul organlar sifatida belgilab qo'yilgan. Qolaversa, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar byudjet so'rovi bilan bir vaqtda tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining kelgusi davr uchun prognozlarini taqdim etadilar hamda davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha ularning taqsimlovchi organlari tomonidan byudjet so'rovi tuzish tartibi belgilanadi.

Taqdim etilgan byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash

⁷O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 2013-yil 26-dekabr. 83-modda

lozimki, kelgusi davr uchun byudjet so`rovi davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — joriy yilning 1 iyuligacha taqdim etiladi. Ishlab chiqilgan davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari tushumlar manbalari bo'yicha daromadlar va yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar prognozidan tarkib topadi. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjet loyihasi yig`ma Byudjetnomaga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etiladigan ushbu byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari esa o`z o`rnida, navbatdagi yil uchun Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qiladi. Keyinchalik shu asosda, davlat maqsadli jamg'armalarining asosiy parametrlari tarkibiy moddalaridan biri hisoblangan navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi qarorlarini ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi.

Davlat byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining asosiy parametrlari tasdiqlanganidan keyin esa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajmlarini ularning e'tiboriga — o'n ish kuni ichida yetkazadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, byudjet tizimining barcha byudjet tashkilotlari singari davlat maqsadli jamg'armalari ham o`z xarajatlar smetasini tuzadi va vakolatli organlarga taqdim etadi. Byudjet kodeksining 108-moddasi aynan davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash haqida bo`lib, unda davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini oluvchilar tomonidan ularning bir yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida oyma-oy bo'lingan holda tuzilishi va

tasdiqlanishi belgilab qo'yilgan. Shu bilan bir qatorda, davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasining va unga doir ilovalarning shakllari hamda smetani tuzish tartibi davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan tasdiqlanishi ko'rsatib o'tilgan. Qolaversa, ushbu moddada davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy yilning 10 martidan kechiktirmay amalga oshirilishi hamda davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha tasdiqlangan xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan joriy yilning 1 aprelidan kechiktirmay amalga oshirilishi qayd etilgan.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosi ham Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali amalga oshiriladi. Bunda davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari — davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlari, asosan, Moliya vazirligi tomonidan ochiladi. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi to'lovlar g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining tashkiliy-huquqiy asosi borasida fikr bildirganda bir jihatni ham ta'kidlab o'tish zarur. Byudjet jarayonida davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan o'zaro munosabat o'rnatishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu orqali byudjet tizimi byudjetlarining mustaqillik prinsipi yuzaga chiqadi va ularning faoliyati samaradorligini oshirish asosiy maqsad qilib ilgari surilgan. Shu bilan bir qatorda, davlat maqsadli jamg'armalarining hokimiyat organlari noo'rin ta'siridan holi qilish orqali ularning daromad va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash hamda shu orqali, yakuniy moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

1-bob bo'yicha xulosa.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining birinchi bob bo'yicha quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Davlat maqsadli jamg'armalari - davlatning ayrim xarajatlarini moliyalashtirish uchun mamlakatning byudjet tizimi tarkibiy qismi sifatida jamg'ariladigan moliyaviy mablag'lar bo'lib, ularning maqsadli safarbar etilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq shakllantirilgan fondlardir.

2. Byudjetdan tashqari jamg'armalar - bu, ba'zan ijtimoiy ehtiyojlarni moliya bilan ta'minlash uchun davlat tomonidan jalb qilinadigan va operativ mustaqillik asosida kompleks ravishda sarflanadigan moliya resurslarini qayta taqsimlash va foydalanish shaklidir. G'arb mamlakatlarida bundan jamg'armalar soni 30 tadan 80 tagacha yetishi mumkin.

3. Davlat maqsadli jamg'armalari iqtisodiyotning ustuvor sohalarini qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda har xil maxsus fondlar ko'magida aholiga sotsial xizmatlar ko'lamini kengaytirish kabi vazifalarni bajaradi. Odatda, maqsadli jamg'armalar ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan va iqtisodiy yo'naltirilgan jamg'armalarga ajratiladi. Ijtimoiy maqsadli jamg'armalar deganda, aholini hamda unga ijimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar tushunilsa, iqtisodiy maqsadli jamg'armalarga esa, iqtisodiyot yetakchi tarmoq va sohalarini qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash yoki alohida tarmoqni yanada rivojlantirish uchun tashkil etiladi.

4. Mamlakatimizda amaldagi byudjet kodeksiga ko'ra 7 ta maqsadli jamg'arma faoliyat olib bormoqda. Bularga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan jamg'armalar, jumladan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, shuningdek, Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi hamda O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasikabilar kiradi.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ularning byudjeti jamg`arma doirasida tuziladi va ijro etiladi, shuningdek, davlat konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga kiritiladi. Davlat maqsadli jamg`armalari Moliya vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladi.

6. Davlat maqsadli jamg`armalarining boshqaruv apparati bo`lib ularning boshqaruv kengashi sanaladi. O`z o`rnida, jamg`armaning hududiy bo`linmalari faoliyati mahalliy hokimiyat organlari hamda moliya boshqarmalar va bo`limlari tomonidan muvofiqlashtirib turiladi. Barcha byudjet tizimi byudjetlari qatori, davlat maqsadli jamg`armalari byudjeti ham Moliya vazirligi G`aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.

2-BOB O'ZBEKISTONDA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI FAOLIYATINING AMALDAGI HOLATI

2.1 O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasi faoliyati tahlili

Ijtimoiy himoyani (har qanday shaklda va aholining har qanday qatlami uchun), davlatning ijtimoiy siyosatini hamda ijtimoiy dasturlarni (mulk shaklidan qat'iy nazar) ro'yobga chiqarish doimo muayyan miqdordagi moddiy mablag'lardan maqsadli foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun ijtimoiy fondlar har qanday ijtimoiy mexanizmning ajralmas elementi bo'ladi. Jahon amaliyoti tahlilining ko'rsatishicha, bu fondlar turli-tuman shaklda tashkil qilinishi mumkin. Ijtimoiy fondlarning mazmuni iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy maqsadga erishish bilan obyektiv ravishda bog'liqdir. Bozor mexanizmining samaradorlik prinsiplari o'zaro asosiy va ijtimoiy adolat xususiyatlari bo'yicha ko'p jihatdan farq qiladi.

Aholining muhtoj qatlamlarini himoyalash maqsadida daromadlarni muayyan tartibda qayta taqsimlash zaruriyati kelib chiqadi. Bunday qayta taqsimlashning moliyaviy vositasi ijtimoiy yo'naltirilgan jamg'armalar orqali amala qiladi. Bu kabi fondlar esa, o'z o'rnida, davlat yoki nodavlat ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ijtimoiy fondlarning shakllari o'rtasidagi nisbat ko'p omillarga, eng avvalo, iqtisodiy rivojlanishning milliy modeliga bog'liqdir. Ijtimoiy jamg'armalar ham, har qanday pul mablag'lari fondi singari, so'zsiz, moliyaviy munosabatlar tizimiga kiradi va muayyan moliyaviy mazmunga ega bo'ladi. Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida moliyaviy tizimni ijtimoiy fondlar majmuisiz tavsiflab bo'lmaydi, ularning aksariyati ustuvor yo'nalishlarda muhim o'rin tutadi.

Boshqa tarafdin esa, ularning tashkil etilishidan asosiy maqsad – foyda olishdan iborat bo'lmaydi. Bozor xususiyatiga ega bo'lgan tashkilot deganda, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan eng ko'p darajada foyda olishga yo'naltirilgan tashkilot tushuniladi. Shunday ekan, ijtimoiy jamg'armalar bozor sharoitida faoliyat ko'rsatishiga qaramay, ular mohiyatan bozorga xos xo'jalik subyektlaridan tubdan farq qiladi. Mazkur qoidani to'laroq tushunish uchun

bugungi aralash iqtisodiyotda bozor va nobozor munosabatlari mavjudligini ta'kidlab o'tish zarur. Ijtimoiy maqsadlarga yo'nalgan jamg'armalar, tabiiyki, nobozor munosabatlar sohasiga kiradi, chunki ular daromadlarini bozor tamoyillari asosida emas, balki mazkur jamiyat uchun eng maqbul bo'lgan ijtimoiy adolat tamoyillariga ko'ra maqsadli qayta taqsimlashni taqozo etadi.

Biroq ijtimoiy yo'naltirilgan fondlarga notijorat, foyda keltirmaydigan tashkilot deb qarash ham haqiqatga to'la mos kelmaydi. Ijtimoiy sektorda notijorat va xayriya tashkilotlari singari institutsional tuzilmalar borligi ma'lum. Jamiyat manfaatlari yo'lida ijtimoiy, madaniy va gumanitar faoliyatni amalga oshiradigan tashkilotlar tarixdan davlat tuzilmasining bir qismiga aylanib qolgan. Davlatning ijtimoiy faoliyati aksariyat hollarda ushbu tashkilotlar orqali amalga oshirilgan. Biroq bunday tashkilotlarning byudjeti davlat xazinasiga bevosita bog'liq bo'lgan. Xayriya faoliyatiga azaldan xususiy ish sifatida qaralgan. Biroq mamlakatlar taraqqiy etib borgani sari xususiy xayriya faoliyati rivojlanib xususiy badallar va diniy tuzilmalar mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan xayriya tashkilotlari yuzaga kela boshladi. Shunga qaramasdan, bunday tashkilotlarning faoliyati xayriya yordami ko'rsatish maqsadida xususiy shaxslar va turli tashkilotlarning ixtiyoriy xayriylarni to'plash bilan cheklangan.

XX asrning birinchi yarmida, dastavval AQSHda yirik korporatsiyalar va firmalar tomonidan tashkil qilingan ilk xayriya fondlari paydo bo'ldi. Ular faol notijorat faoliyat yuzaga kelganidan darak berdi. Jahon amaliyotida keng tarqalgan quyidagi notijorat xayriya tashkilotlari shakllandi: xayriya ijtimoiy tashkiloti; xayriya fondi; xayriya birlashmasi; xayriya assotsiatsiyasi va boshqalar. Notijorat xayriya tashkilotlarining pul mablag'lari va mulki ikki manba asosida shakllanadi: pul va natural ko'rinishdagi maqsadli tushumlar (kirish va a'zolik badallari); tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar. Davlat shakllana boshlagan xayriya dastur va loyihalarini subvensiyalar ajratish, grantlar berish, subsidiyalar, byudjet krediti kabi shakl va ko'rinishda qo'llab-quvvatlaydilar.⁸

⁸www.investopedia.org. Financial dictionary. Economical encyclopedia.

Milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy yo`naltirilgan jamg`armalar, asosan, o`tish davridagi taqsimot munosabatlari mahsuli bo`lib, katta ijtimoiy yukni o`z zimmlariga oladilar. Ular firmalar, korxonalar, uy xo`jaliklari va davlat singari iqtisodiyot subyektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xo`jalik yurituvchi subyektlar o`tish iqtisodiyotining ko`p tarmoqli xususiyatiga muvofiq mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalardan iborat bo`ladi. Mamlakatimizda YaIM ning yildan yilga oshib borishi iqtisodiyot subyektlarining ijtimoiy jamg`armalarga mablag` ajratish imkoniyati ortayotganini anglatadi. Bu jihatdan olib qarasa, ijtimoiy jamg`armalarni mablag` bilan ta`minlashning ixtiyoriyligi, ikkinchi tomondan esa – majburiylikni taqozo etadi. Ushbu ijtimoiy yo`naltirilgan jamg`armalarni shakllantirishning ixtiyoriyligi bozor munosabatlarning demokratik mohiyati bilan belgilanadi. Majburiylikni esa, davlatning bozor iqtisodiyotidagi funksional roli, shu jumladan uning ijtimoiy vazifalari bilan oldindan belgilanadi.

Fuqorolarning ijtimoiy ta`minotga bo`lgan huquqlari asosiy qomusimiz bo`lgan O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlangan. Jumladan, uning 39-moddasida: “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo`qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo`lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta`minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo`yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo`lishi mumkin emas”⁹ deb qayd etilgan. Shuning o`ziyoq, mamlakatimizda ijtimoiy sohaga berilayotgan e`tiborning yuqoriligidan darak beradi. Keyingi yillarda, ijtimoiy islohotlarning yangi bosqichga chiqarishga erishganlik bilan bir qatorda, istiqbolli ijtimoiy loyihalar amalga oshirilishi ham ko`zda tutilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev: “Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta`lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish — bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet

⁹O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. 39-modda

tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish e‘tiborimiz markazida bo‘ladi’¹⁰ deb ta’kidlab o‘tdi. Bu borada esa, shubhasiz, davlat maqsadli jamg‘armalari o‘ziga xos o‘ringa egadir. Birgina misol, o‘tgan 2016-yilda davlat maqsadli dasturlari doirasida ijtimoiy ob’ektlarni qurish va rekonstruktsiya qilishga yo‘naltirilgan, Davlat maqsadli jamg‘armalarimablag‘lari o‘tgan yilga nisbatan 8,2%ga ortib, 2483,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shu bilan birga, o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmida davlatmaqsadli jamg‘armalarining ulushi 6,1%ni tashkil etdi¹¹.

Bugungi kunda malakatimizda faoliyat olib borayotgan davlat maqsadli jamg‘armalaridan quyidagilarni ijtimoiy yo‘naltirilgan deb hisoblash mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;

- O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi;

Ushbu jamg‘armalar orasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘zining keng qamrovliligi va yirik hajmdagi byudjetga egaligi bilan malakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Pensiya fondining tashkil etilishi. Dastlab, O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 14 yanvardagi 9-son qaroriga asosan Pensiya fondining O‘zbekiston jumhuriyat bo‘limi tashkil etilgan.

Ijtimoiy ta‘minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug‘urta mablag‘larining to‘g‘ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993 yil 4 avgustdagi 391-son qaroriga muvofiq, sobiq

¹⁰ Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Ma‘ruza. 2016-yil 7-dekabr.

¹¹ O‘zbekiston Iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten, T.: CER, 2017 yil, 6-bet

SSSR Pensiya fondining O'zbekiston Respublika bo'limi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilgan. Unga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha, farzand tug'ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to'lashga yo'naltiriladigan davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari berilgan.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti uchun majburiy badallarning to'liq kelib tushishi hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy ta'minlash uchun ijtimoiy ta'minot organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrda 459-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli xududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrda 444-son qaroriga muvofiq, 2001 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga pensiyalar, shuningdek ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan to'lanadigan nafaqalarni o'z vaqtida hisoblash va to'lash funksiyalari yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 21 oktyabrda 490-son qaroriga asosan, 2005 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2009 yil 30 dekabrda PF-4161 son Farmoniga muvofiq, 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompenstsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning pensiya ta'minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun mas'ul bo'lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funksiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy shakllanish manbalariga ko'ra korxonalar va muassasalar tomonidan ajratiladigan mablag'lardan iborat bo'lib, markazlashgan holda davlat nazorati ostida jamg'ariladi va taqsimlanadi.

Jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to'lovlar va badallar:

- belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari;
- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;
- fuqarolarning sug'urta badallari;
- jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari;
- majburiy ajratmalar;

b) boshqa to'lovlar:

- «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;

- «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;

- «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;

- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;

- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan;

-kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar va boshqa to'lovlar;¹²

Yuqorida sanab o'tilgan daromadlar orasida Yagona ijtimoiy to'lov Pensiya jamg'armasi daromatlari tarkibida yirik ulushga ega hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda yuridik shaxslarning ish haqi jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov stavkasining yillar davomida o'zgarish dinamikasi ko'rsatib o'tilgan.

¹²O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligihuzuridagi byudjetdan tashqari Pensiyajamg'armasi to'g'risida Nizom. 2010-yil 19-fevral. 10-modda

1-jadval

Yuridik shaxslarning ish haqi jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi (% da)¹³

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	24,0	24,0	25,0	25,0	25,0	25,0	25,0	25,0	25,0	25,0
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	23,5	23,6	24,8	24,8	24,8	24,8	24,8	24,8	24,8	24,8
Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi	0,3	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1

Jadvalda keltirilishicha, 2009-2010-yillarda Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 24% ni tashkil etib, uning 23,4% ni aynan Pensiya jamg'armasiga yo'nlatirilgan. 2009-yilda esa bu ko'rsatkich 23,6% ni tashkil etgan. Mamlakatimizda ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish jarayonida Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 2010-yildan 25 foizga oshirildi va 2018-yilga qadar o'zgarishdan kelmoqda. 2018-yilda ushbu to'lov tarkibiy taqsimotida ham o'zgarishlar kuzatilib, endilikda Pensiya jamg'armasiga 24,8%, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasida 0,1% hamda Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga 0,1% miqdorida ulush to'g'ri kelmoqda.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mo'tadil daromadlaridan biri bu – shubhasiz, tijorat banklarining majburiy ajratmalari hisobiga shakllanadigan manbalardir. So'nggi 5 yilda, tijorat banklari tomonidan bir qator davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalari bank foydasiga nisbatan stavkasi o'zgarishdan qolmoqda. (2– jadval)

Bizga ma'lumki, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi malakatimizning barcha viloyat, tuman va shaharlarida o'z boshqarma va bo'limlarini tashkil etgan hamda ular faoliyati doimiy ravishda nazorat qilinadi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan to'lanadigan davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar¹⁴

	Soliq turi	2014	2015	2016	2017	2018
1	Yuridik shaxslarning daromadiga solinadigan soliq	15%	15%	15%	15%	15%
2	O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga bank foydasidan majburiy ajratmalar	1,6%	1,6%	1,6%	1,6%	1,6%
3	O'zbekiston Respublikasi Yo'l jamg'armasiga bank foydasidan majburiy ajratmalar	1,4%	1,4%	1,4%	1,4%	1,4%
4	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash byudjetdan tashqari Jamg'armasiga bank foydasidan majburiy ajratmalar	0,5%	0,5%	0,5%	0,5%	0,5%
5	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil manirivojlantirishga sofdaromaddan, ya'nidaromadsolig'ichegirilganidank eyinsolinadigan soliq	8%	8%	8%	8%	8%

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklari tomonidan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga 1,6 %, yo'l jamg'armasiga 1,4 %, Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash byudjetdan tashqari Jamg'armasiga 0,5 % miqdorida qilib belgilangan.

Hududlar kesimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pensiya nafaqa oluvchilar salmog'i bo'yicha Samarqand viloyati Nurobod tumani yetakchi o'rinni egallaydi. Quyidagi jadvalda Nurobod tumani aholisi tarkibida pensiya va nafaqa oluvchilar


¹⁴O'zbekiston Iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. T.: CER. 2018 yil. 47-bet

sonining harakati hamda ular tarkibiy ta'minoti turlarining ulushi to'g'risida 2016-2017-yillar holatiga ma'lumotlar keltirilgan:

3-jadval

Samarqand viloyati Nurobod tumani Pensiya jamg'armasida 2016 va 2017 yillar holatiga "Pensiya va nafaqa oluvchilar sonining harakati hamda ular tarkibida ijtimoiy ta'minot turlarining ulushi to'g'risida" tahliliy ma'lumot¹⁵

Ijtimoiy ta'minot turi	2016-yilda, dona	ming so'mda	2017-yilda, dona	ming so'mda
Tayinlangan, jami	938	300771	1676	366633.7
Yoshga doir pensiya	548	47825.7	1193	277149.2
Nogironlik pensiyasi	69	65968.0	178	41090.9
Boquvchisiniyo`qotganlik pensiyasi	142	131114.7	220	37881.6
Ijtimoiy nafaqalar	179	55862.6	85	10512



Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratsak, tayinlangan pensiya va nafaqalar soni 2015-yilda 938 tani tashkil etib, 2016-yildagi 1676 taga nisbatan 2 % ga kamaygan. Bu holat ijtimoiy ta'minot turlarining boshqa shakllarida ham kuzatilgan. Shu o'rinda pensiya va nafaqa shakllari orasidagi o'zaro nisbatga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, yoshga doir pensiya eng yuqori ulushni egallagan. Bunda Pensiya jamg'armalaridan ajratilayotgan qarilik pensiyalari jami ta'minot

¹⁵ Samarqand viloyati Nurobod tumani Pensiya bo'limi ma'lumotlari asosida talaba tomonida tayyorlandi

turlari orasida 82 % ko`rsatkichni qayd etgan. Shuningdek, nogironlik pensiyasi 6 %, boquvchisini yo`qotganlik pensiyasi 4 %, boshqa ijtimoiy nafaqalar esa 8 % ni egallagan.

Pensiya ta`minoti tizimining asosiy moliyaviy instituti – O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi bo`lib, uning moliyaviy barqarorligi, birinchidan, to`g`ridan-to`g`ri aholining ijtimoiy himoya tizimi barqarorligiga, ikkinchidan, Pensiya jamg`armasiga to`lanishi lozim bo`lgan majburiy to`lovlar va badallar hamda boshqa to`lovlarga bog`liq bo`ladi. Quyida keltirilgan 4-jadvalda bugungi kunda O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg`armasining daromadlari manbalari va ularning miqdoriy ko`rsatkichlari keltirilgan.

4-jadval
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi daromadlari tarkibi va tuzilishi ¹⁶

Ko`rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yi	
	Mrld.so`m	%	Mrld.so`m	%	Mrld.so`m	%
Daromadlar	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0
Yil boshiga qoldiq	2592,0	5,7	2568,3	4,2	2282,0	11,7
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to`lovdan tushumlar	8324,2	0,39474,0	9474,0	2,3	10226,0	52,4
Fuqarolarning majburiy sug`urta badallari	2463,8	4,9	3235,0	7,9	3993,9	20,5
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	2063,8	2,5	1527,0	4	1429,7	7,3
Boshqa daromadlar	1113,1	7	1291,0	2	1555,0	8,0
Soliqsiz tushumlar	-		18,0	1	18,0	0,09


Pensiya jamg`armasi daromadlari tarkibida eng katta ulushni yuridik shaxslar ish haqi fondidan ajratmalar tashkil etadi. Ushbu ajratmalar

¹⁶ O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg`armasining ma`lumotlari asosida

hisobidan fondning 2017-yilda 52,4 foizi shakllantirilgan. Hajmi jihatidan keyingi o'ringda fuqarolarning majburiy badallari turadi, ular bo'yicha tushumlar Jamg'arma daromadlarining 2017-yil prognozlari bo'yicha 20,5 foizini tashkil qilgan. Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalarning ulushi 2017-yil prognozlari

Bo'yicha 7,3 foiz bo'lishi kutilmoqda. Boshqa daromadlarning Pensiya jamg'armasi daromadlaridagi ulushi 2017-yil prognozlari bo'yicha 8,1 ga ko'tarilgan.¹⁷

Shuningdek, Pensiya jamg'armasining daromadlari o'zgarish sur'atlarini dinamik harakatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oxirgi yillarda o'suvchan tendensiyaning guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, 2015-2017 – yillar oralig'ida Pensiya jamg'armasi daromadlari o'sish sur'atlari deyarli 2 barobarni tashkil etgan.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi 2015-2017-yillardagi daromadlari dinamikasi¹⁸


Quyidagi rasimga e'tibor qaratadigan bo'lsak Pensiya jamg'armasining daromadlar tarkibi beshta shakldan iborat bo'lib ularning daromadlar tarkibida o'z

¹⁷Xamdamov Sh. „Istiqbolli investitsiya loyihalari hada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirishni yanada kengaytirish yo'llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya.-T.: "IQTISOD-MOLIYA"2018y. -973b.

¹⁸Xamdamov Sh. „Istiqbolli investitsiya loyihalari hada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirishni yanada kengaytirish yo'llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya.-T.: "IQTISOD-MOLIYA"2018y. -973b.materiallari asosida tayyorlandi.

ulushlarini 2015, 2016 va 2017-yillarda o'sgan yoki kamayganligini ko'rish mumkin.

Bizga 2-rasmdan shu ma'lumki Pensiya jamg'armasining daromadlar tarkini eng yuqorisini Yagona ijtimoiy to'lovlardan ajratmalar hisoblanib,uning ko'rsatkichi uch yil davomida Pensiya jamg'armasining daromadlar tarkibida yuqorilab o'sganini ya'ni 50.28,52.30hamda52.43 ko'rsatkichlarni ko'ramiz. Pensiya jamg'armasining daromadlar tarkibida deyarli kam bo'lgan ko'rsatkichni soliqsiz daromadlar tashkil etgan.



3-rasm.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi 2015-2017 yillar uchun daromadlari tarkibi ¹⁹

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455, 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699, 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454 sonli qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

BMT ning ma'lumotiga ko'ra, 2015-yilda dunyo aholisi tarkibida 60 yosh va undan katta yoshdagi aholining ulushi 12,0 foizni (900 mln. kishini) tashkil etgan.

2020-yilga borganda 60 yosh va undan katta yoshdagi insonlarning soni birinchi marta 5 yoshdan kichik insonlar sonidan ortib ketadi. 2050-yilga kelib Yer yuzida yoshi 60 dan oshgan va undan katta yoshdagilar soni 22 foizni (2,0 mlrd. kishini) tashkil etadi. O'zbekiston da keksalarning soni aholi umumiy sonining 6,7 foizini tashkil etadi. 2030-yilga kelib ushbu ko'rsatkich – 11,6; 2050-yilda esa 19,4 foizga yetadi. 60 va undan katta yoshdagi shaxslar ulushining muttasil ortib borishi bilan katta yoshdagi kishilarning pensiya ta'minoti, shuningdek ularga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan loyiha va dasturlarni moliyalashtirish muammosi paydo bo'lishi tabiiy. Shu sababli mazkur jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalarining muntazam ravishda takomillashtirilib borilishi, tushumlarning o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlashga erishish Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlari pensiya tizimlari boshqarish va moliyalashtirishning ancha murakkab bo'lgan aralash tizimiga ega. Bu davlatlarda ham boshqarish va moliyalashtirish masalalarida muammolar mavjud. Bu muammolar mamlakatning demografik tarkibi, aholining borgan sari qarib borayotganligi, ishlovchilar bilan pensiya oluvchilar o'rtasidagi nisbatning pensiya ta'minotining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada o'zgarib borayotganligi, davlat tomonidan kafolatlangan pensiya tizimlariga muqobil ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarining rivojlanganligi, lekin bu tizim aholining daromadlilik darajasini hisobga olgan holda etarli samaradorlikka ega emasligi, xususiy pensiya fondlarining rivojlanishiga mamlakatda moliya bozorining lozim darajada shakllanmaganligi kabi muammolar bilan bog'liq.

Quyida keltirilgan 5-jadvalda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining

daromadlari manbalari va ularning miqdoriy ko'rsatkichlari 2018-yil prognozi keltirilgan.

5-jadval


O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining 2018-yildagi daromadlari prognoz tahlili ²⁰

Jami daromadlar	23240,1
Yil boshiga qoldiq	3007,5
Daromadlar	20232,6
shu jumladan	
Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar	11808
Fuqarolarning majburiy sug'urta badallari	4466,3
Tovar (ish, xizmatlar) realizatsiyasi hajmidan majburiy ajratmalar	2059,9
Boshqa daromadlar	1852,4
Soliqsiz daromadlar	46

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Pensiya jamg'armasining jami daromadlari 2018-yil uchun 23240.1 mlrd.so`m prognoz qilingan. Yil boshidagi qoldiq esa 3007.5 mlrd.so`mni tashkil etgan. Pensiya jamg'armasining umumiy daromadlari 20232,6 mlrd.so`mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Daromadlar tarkibini tashkil etuvchi yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar 11808 mlrd.so`mni tashkil etgan bo'lsa, Fuqarolarning majburiy sug'urta badallari 4466.3 mlrd.so`mni tashkil etishi prognoz qilingan. Shu jumladan Tovar (ish, xizmatlar) realizatsiyasi hajmidan majburiy ajratmalar

²⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlari prognozi to'g'risidagi PQ- 3454 qarori asosida tayyorlandi

esa 2059.9 mlrd.so`mni tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin. Boshqa daromadlar prognozi 1852.4 mlrd.so`m hamda soliqsiz daromadlar 46 mlrd.so`mni 2018 yilda tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin.



4-rasm O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining jami daromadlari tarkibida daromad moddalarining ulushi (2018-yil)²¹

Yuqoridagi rasimga e'tibor bersak, 2018-yilda Respublika Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida - Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar 50.81 % ekanligini ko`rishimiz mumkin. Ikkinchi o'rinda esa Fuqorolarning majbuiy sug'urta baddallari daromadlar moddasini 19.22%ni tashkil etgan. Pensiya fondining jami daromadlari tarkibida daromad moddalarining Soliqsiz daromadlar eng kam ulushga ya'ni 0.20%ni tashkil etganligini guvohi bo'lamiz.

Moliya Vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi har yili xarajatlar smetasiga kiritilgan yo`nalishlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshiradi. Agar oxirgi 2 yillikdagi xarajatlar tarkibi va 2017-yil uchun tasdiqlangan ma'lumotlari asosida

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarori. PQ-3454. 2017-yil 29-dekabr

shuni ta'kidlash mumkinki, xuddi daromadlar singari jamg'arma xarajatlari ham yillik o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Jumladan, jamg'armaning jami xarajatlari 2015-yilda 15989,2mlrd so'm, 2016-yilda 17701mlrd so'm, 2017-yilda 19505,1mlrd so'mni tashkil etgan. Bevosita jamg'arma xarajatlari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, ishlayotgan pensionerlarga ajratiladigan pensiya to'lovlari yuqori ulushga egaligiga guvoh bo'lish mumkin.

6-jadval


O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining 2015-2017 yillardagi xarajatlari tarkibi tahlili ²²

Xarajatlar ko'rsatkichlari	2015-yil	2016-yil	2017-yil
	mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash	12838,1	14779,6	16629,9
Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash	474,8	484,3	534,5
Qariyalar va mehnatga layoqatsizlarga nafaqalar va dafn marosimi uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	105,2	152,1	204,3
Boshqa xarajatlar	2,8	3	10
Yil oxiriga qoldiq	2568,3	2282	2126,4
Jami xarajatlar	15989,2	17701	19505,1

Yuqoridagi jadvaldan shu ma'lum bo'ladiki, ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari bilan bog'liq xarajatlar kuzatilayotgan yillar mobaynida jami xarajatlar tarkibida o'rtacha 83 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Birgina 2016-yilning o'zida ushbu to'lov umumiy summasi 14779,6 mlrd so'mni tashkil etganligi va bu jamiga nisbatan 81,6 % ulushni qayd etganligi mamlakatimizda

²²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarori. PQ-3454. 2017-yil 29-dekabr

ijtimoiy soha, xususan, pensionerlarni qo'llab-quvvatlash borasida yaxshi an'ana yo'lga qo'yilganidan darak beradi. Mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda shu mamlakatda tarkib topgan pensiya ta'minoti muhim o'rin egallaydi. Pensiya ta'minoti tizimi jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo'ljallangan, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Bu tizimning muvaffaqiyati esa uning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga, pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy manbalari mustahkamligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.




5-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiyajamg'armasi xarajatlarining davlat byudjeti hamda YaIMga nisbatan salmog'i²³

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Pensiya jamg'armasi xarajatlari 2015 yilda Davlat byudjetidagi salmog'i 42.11% ni tashkil etganligini va bu ko'rsatkich YaIMdagi ulushi esa 9.33% ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu xarajatlarni yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2016 yilda Davlat byudjetidagi salmog'i 42.43% ni tashkil etganligini va bu

²³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarori. PQ-3454. 2017-yil 29-dekabr

ko`rsatkich YaIMdagi ulushi esa 8.88% ni tashkil etganligini hamda 2017 yilda esa Davlat byudjetidagi salmog`i 43.86% ni tashkil etganligini va bu ko`rsatkich YaIMdagi ulushi esa 7.89% ni tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin.

Mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda shu mamlakatda tarkib topgan pensiya ta`minoti muhim o`rin egallaydi. Pensiya ta`minoti tizimi jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo`ljallangan, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Bu tizimning muvaffaqiyati esa uning moliyaviy resurslar bilan ta`minlanganlik darajasiga, pensiya ta`minoti tizimining moliyaviy manbalari mustahkamligiga ko`p jihatdan bog`liq bo`ladi.



6-rasm O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi turli yillardagi xarajatlari dinamikasini o'zgarishi²⁴

Pensiya jamg`armasining xarajatlari o`zgarish sur`atlarini dinamik harakatiga e`tibor qaratadigan bo`lsak, oxirgi yillarda o`suvchan tendensiyaning guvohi

²⁴O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari va parametrlari prognozi to`g`risida"gi qarori. PQ-3454. 2017-yil 29-dekabr

bo`lishimiz mumkin. Jumladan, 2015-2017 – yillar oralig`ida Pensiya jamg`armasi xarajatlar o`shish sur`atlari deyarli 1,2 barobarni tashkil etgan.

Joriy yil uchun tasdiqlangan byudjet parametrlariga muvofiq, Pensiya fondining jamixarajatlarko`rsatkichi 23240 mlrd so`m ajratilishi ko`zda tutilgan. Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to'lovlari Pensiya jamg`armasi amalaga oshiradigan xarajatlar orasida yetakchi o`rinlarda turadi. Xususan, 2015-yilda ushbu xarajat 15989,2 mlrd so`mni tashkil etgan bo`lsa, 2017 yilga kelib, ushbu ko`rsatkich 19505,1 mlrd so`mdan iborat bo`lgan. 2018-yilda esa ushbu pensiya turi uchun 23240 mlrd so`m ajratilishi ko`zda tutilyapti.

7-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg`armasining xarajatlar prognoz ko`rsatkichlari 2018-yildagi(prognoz) tahlili ²⁵


Jami xarajatlar	23240
Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to'lovlari	19586,9
Ishlaydigan pensionerlarga pensiya to'lovlari	616,6
Keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, dafn marosimi uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	237,7
Boshqa xarajatlar	34
Yil oxiriga qoldiq	2765

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga ko`tarish hamda aholi farovonligini yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mrziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevral kuni PF-4947 son bilan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi farmonini imzoladi. 2017-2021 yilga mo`ljallangan ushbu harakatlar strategiyasining ustuvor y`onalishlaridan biri hisoblangan ijtimoiy sohani yanada

²⁵O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari va parametrlari prognozi to`g`risida”gi qarori. PQ-3454. 2017-yil 29-dekabr

qoʻllab quvvatlash doirasida bir qator ishlar bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni toʻlash mexanizmini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda pensionerlar, talabalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli va samarali himoya qilish, ular Oʻzbekiston Respublikasining barcha hududida xarid qiladigan tovar va xizmatlar uchun toʻlovlarni toʻsiqlarsiz amalga oshirishi uchun qulay sharoitlar yaratishga doir qatʼiy choralar belgilangan.



7-rasm O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining xarajatlar tarkibidagi moddalar ulushi 2018-yil²⁶

Yuqoridagi rasm maʼlumotlarini tahlil qiladigan boʻlsak, Pensiya jamgʻarmasi xarajatlar tarkibidagi moddalar ulushi 2018 yil uchun prognoz koʻrsatkichlari ishlamaydigan pensionerlarga pensiya toʻlovlari 84.28% ni tashkil etganligini hamda bu koʻrsatkich umumiy xarajatda katta salmogʻga ega ekanligini

²⁶Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari va parametrlari prognozi toʻgʻrisida”gi qarori. PQ-3454. 2017-yil 29-dekabr

ko`rishimiz mumkin. Keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, dafn marosimi uchun nafaqalar va boshqa to`lovlar 1.02%ni hamda ishlaydigan pensionerlarga pensiya to`lovlari 2.65% ni tashkil etganligini hamda boshqa xarajatlar ulushi 0.15% ni tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin.

2.2 O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo`l fondi faoliyati tahlili

Oldingi bobda ta`kidlanganidek, davlat maqsadli jamg`armalari faoliyat maqsadiga ko`ra ijtimoiy hamda iqtisodiy maqsadlarga yo`naltirilgan jamg`armlarga ajratiladi. Iqtisodiy maqsadlarga yo`nalgan davlat maqsadli jamg`armalrini tashkil etishdan bosh maqsad – bu shubhasiz, davlat byudjetini qo`llab quvvatlashdir. Bunda jamg`armalar tovar ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish, ilm-fan, ta`lim, atrof-muhit himoyasi kabi bir qator ustuvor tarmoqlarda resurslar yetishmovchiligini oldini olish, shuningdek, moliyalashtirishning davomiyligini ta`minlash maqsadida tashkil etiladi. Suhbu jamg`armalar ham xuddi ijtimoiy maqsadli jamg`armalar kabi o`z byudjetiga ega va hukumat darajasida ko`rib chiqiladi.

Iqtisodiy yo`naltirilgan davlat maqsadli jamg`armalarining o`ziga xos farqli jihatlaridan biri sifatida ularning vaqtinchalilik xususiyatini misol qilishimiz mumkin. Ya`ni, amaliyotda, faqatgina eng zarur va rivojlanishi taqozo etadigan tarmoq va sohalar uchungina maxsus jamg`armalar tashkil etiladi. Biroz muddat o`tib, ya`ni rivojlanishning me`yoriy nuqtasiga yetgach ushbu jamg`armalarga ehtiyoj qolmaydi va ular tugatiladi yoki restrukturizatsiya qilinib, faoliyat yo`nalishi o`zgaradi.

Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, iqtisodiy maqsadda tashkil etilgan byudjetdan tashqari jamg`armalar orasida eng mo`tadil va muvozanatli faoliyat ko`rsatuvchi jamg`arma bu – yo`l jamg`armasidir.

O`zbekiston Respublikasi geografik joylashuviga muvofiq, okeanva dengiz bandargohlariga to`g`ridan-to`g`ri chiqish uchun kamida ikkita mustaqil mamlakatning davlat chegarasini bosib o`tishi lozim. Bunday holat, o`z navbatida,

dengiz transportini tashkil etish va undan foydalanishga imkoniyat bermaydi, albatta. Bu narsa bizda havo yo'li tarnsporti, temir yo'l tarnsporti, quvur transporti va eng asosiysi avtomobil yo'l transportini boshqa davlatlardagi (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh va bir qator Fors hamda Arab mamlakatlari)ga qaraganda jadal va tez sur'atda rivojlantirishni ob'ektiv zarurat deb biladi. Buni teran his etgan mamlakatimiz rahbariyati mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarni qurish, qayta ta'mirlash, rekonstruksiya qilish chora-tadbirlariga katta ahamiyat berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida tranzit transport tashuvlari chorrahasida joylashuvi bevosita avtomobil yo'llarini muttasil yangilanishini va davr talabiga mos rivojlanishini talab etadi. Respublikamiz transport siyosatining birlamchi maqsadi — mahalliy iste'molchilar bilan birga, xorijiy mamlakatlar foydalanadigan eng yaxshi, qulay va yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan transport yo'laklarini respublika hududidan o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

Avtomobil yo'llarini davr talabiga mos ravishda tashkil etishdankozlangan asosiy maqsad — xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirishga erishish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqargan mahsulotlarini xalqaro bozorlarga yetkazish bo'yicha tarnsport xarajatlarini kamaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashdir. Avtomobil yo'llarini mana shunday ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olib, 1992 yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 10-moddasi bevosita yo'l ishlarini moliyalashtirishga bag'ishlangan bo'lib, uning birinchi bandidashunday talablar o'z aksini topgan:«Umumiy foydalanishdagi yo'l ishlarini (avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash) moliyalashtirish tartibi Yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi». Qonunda aks etgan ushbu bandning o'zi respublikada maxsus yo'l jamg'armasini tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu bois, 1990 yillarning boshlaridayoq «O'zavtoyol» davlat konserni bazasida Respublika Yo'l

jamg'armasi tashkil etilgan edi. Pirovard natijada, respublikamizda xalqaro va mintaqaviy ahamiyat kasb etadigan umumiy yo'llar barpo etildi, ko'plab jahon andozalariga mos xos keladigan yo'l ko'priklari qurildi va ko'rilmogda.

Mamlakatning izchil rivojlanishi va jahon integratsiyasiga yaqinlashishi, Respublika Yo'l jamg'armasi moliyaviy resurslarini shakllantirish va moliyalashtirishni samarali tashkil etishni talab qila boshladi. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 avgustida «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo'l jamg'armasi va «O'zavtoyo'l» davlat aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 361-sonli Qarori e'lon qilindi. Mazkur qaroming 5- ilovasiga muvofiq, Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yo'riqnoma ishlab chiqildi. Yo'riqnomada Respublika yo'l jamg'armasining umumiy qoidalari, maqsadi, asosiy vazifalari va funksiyalari, jamg'armaning huquq va majburiyatlari, jamg'armani boshqaruv kengashi haqida va ijrochi organi faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar aks etgan.

Oldingi bobda ta'kidlaganimizdek, endilikda Respublika Yo'l jamg'armasi Vazirlar Mahkamasi huzurida o'z faoliyatini olib boradi. Avtomobil yo'llari va sun'iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish ishlariga kompleks yondashish asosida yo'l xo'jaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, bu borada loyihalashtirish va yo'l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to'laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida, shuningdek, tugatilayotgan Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi («O'zavtoyo'l» DAK) negizida O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasini tashkil etish nazarda tutiladi.

Ushbu farmonda, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari tushumi va sarf-xarajatlarining yillik va choraklik balanslarini shakllantirish;

- yo'l xo'jaligi ob'ektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash va jihozlashning manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda kelishish;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil` yo'llaridan foydalanish va ularni saqlash xarajatlari smetasini ro'yxatdan o'tkazish;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil` yo'llarini qurish, rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash, jihozlash hamda ulardan foydalanish borasidagi tadbirlarni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish.²⁷

Shuningdek, yo'l jamg'armasiga har yili kelgusi yil uchun maqsad va strategik rejalar belgilab beriladiki, ularning amalga oshirilishi mamlakatimiz transport infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qiladi. Jumladan, mintaqaviy avtomobil yo'llarining yo'l qoplamalari holatini zarur darajaga keltirish va ularni ekspluatatsiya qilish xususiyatlarini oshirish orqali yo'l-transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholining hayot faoliyati uchun, ayniqsa, qishloq joylarda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini va hududlarini istiqbolli rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2018 yillarda mintaqaviy avtomobil` yo'llarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Dasturda quyidagi vazifalar nazarda tutilgan:

- 2017-2018 yillarda 5454 kilometr, jumladan, 2017 yilda — 2700 kilometr, 2018 yilda — 2754 kilometr xo'jaliklararo qishloq avtomobil` yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;
- xo'jaliklararo qishloq avtomobil` yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko'chalarini joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun mintaqaviy yo'llarni ta'mirlashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni 330 ta yo'l texnikasi bilan ta'minlash;

²⁷Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-4954. 2017-yil 14-fevral.

• mavjud respublika xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullar ko'chalarini bosqichma-bosqich xatlovdan o'tkazish va ularni pasportlashtirish, bu boradagi ishlar natijalari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yaratish. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 295 kilometr, Andijon viloyati bo'yicha — 324 kilometr, Buxoro viloyati bo'yicha — 439 kilometr, Jizzax viloyati bo'yicha — 222 kilometr, Qashqadaryo viloyati bo'yicha — 679 kilometr, Navoiy viloyati bo'yicha — 216 kilometr, Namangan viloyati bo'yicha — 309 kilometr, Samarqand viloyati bo'yicha — 479 kilometr, Surxondaryo viloyati bo'yicha — 535 kilometr, Sirdaryo viloyati bo'yicha — 267 kilometr, Toshkent viloyati bo'yicha — 516 kilometr, Farg'ona viloyati bo'yicha — 520 kilometr, Xorazm viloyati bo'yicha — 321 kilometr va Toshkent shahri bo'yicha — 332 kilometr yo'llar va ko'chalarni ta'mirlash nazarda tutilgan.

Bevosita ushbu jamg'armaning daromad va xarajatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, o'zuga xos jihatlarga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, Yo'l jamg'armasi daromadlari ham xuddi Pensiya jamg'armasida kuztilgani kabi o'sish tendieniyasiga ega. Quyidagi jadval asosida daromadlar tarkibi va ularning egallagan ulushlariga baho berishimiz mumkin.

Yo'l xo'jaligi sohasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega ekani uning muhim xususiyati hisoblanadi. Iqtisodiyotning umumiy rivoji, aholi barcha qatlamlarining hayot sifati ayni shu tizimning samarali faoliyat ko'rsatishigabog'liq.

Mustaqillik yillarida viloyatlar va tumanlarning ma'muriy markazlarini bog'lovchi keng tarmoqli transport aloqalari hamda davlatlararo xavfsiz transport tashuvlarini ta'minlashga qaratilgan yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha katta miqyosdagi ishlaramalga oshirildi. Ayni vaqtda, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini boshqarish tizimi, avtomobil yo'llarini saqlashga ko'p mablag' ajratilmoqda.

8-jadval

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasining 2014-2017yillardagi daromadlari tarkibi tahlili²⁸

Ko'rsatkichlar	2014-yil		2015-yil		2016-yil		2017-yil	
	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan foizda
Daromadlar jami, shu jumladan	2111,8	100,0	2782,6	100,0	2974,0	100	3424,9	100
Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	-	-	-	-	-	-	365,7	
Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan majburiy ajratmalar	1298,1	61,5	1684,4	60,5	1815,2	61,0	1863,0	54,4
O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki sotib olinayotgan avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlar	364,3	17,3	448,6	16,1	510,6	17,2	550,0	16,1
Bir avtotashuvchi uchun xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o'tishi uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar (<i>valyuta tushumlarining so'mdagi ekvivalenti</i>)	47,1	2,2	54,0	1,9	60,2	2,0	67,5	2,0
Xalqaro moliya institutlarining Zayomlari	332,1	15,7	584,6	21,0	529,1	17,8	536,7	15,7
Boshqa tushumlar	46,1	2,2	11,0	0,4	36,6	1,2	42,0	1,2
Valyutalarning kursdagi farqi	24,0	1,1	29,3	1,1	22,3	0,7	0,0	0,0

²⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455, 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699, 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454 sonli qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

Ko`rinib turganidek, jamg`arma daromadlari 2014-2015 yillarda har yili o`rtacha 30-35 % ga ortgan bo`lsa, 2016-yilga kelib o`shish sur`atlari biroz pasaygan (10 %), shuningdek, 2017-yilgi ko`rsatkichlari o`shish sur`ati 15 % ga teng bo`lishini aks ettirmoqda. Agar daromadlarning turli yillardagi qiymat ifodasiga qaraydigan bo`lsak, bu 2014-yilda 2111,8 mlrd so`m, 2015-yilda 2782,6 mlrd so`m va o`tgan 2016-yilda 2974,0 mlrd so`mni tashkil etgan.


Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan majburiy ajratmalar

- O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki sotib olinayotgan avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tganlik uchun yig'imlar

- Bir avtotashuvchi uchun xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o'tishi uchun yig'imlar (valyuta tushumlarining so'mdagi ekvivalenti)

- Xalqaro moliya institutlarining zayomlari

- Boshqa tushumlar



8-rasm. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo`l jamg`armasi jami daromadlari tarkibida daromad moddalarining ulushi (2017-yil)²⁹

²⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari va parametrlari prognozi to`g`risida"gi qarori.

Yuqoridagi rasmga e'tibor bersak, 2016-yilda Respublika Yo'l jamg'armasi daromadlari tarkibida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan majburiy ajratmalar ulushi eng yuqori - 61 % ekanligini ko'rishimiz mumkin. Turli yillarda bu ko'rsatkich o'rtacha 65 % ni qayd etgan, shuningdek, 2017 yilda esa, 54,4 % tashkil etishi kutilmoqda. Bu 1863,0 mlrd so'mga tengdir va bu o'tgan 2016-yilgi 1815,2 mlrd so'mdan 47,8 mlrd so'mga ko'p demakdir. Ushbu daromad moddasining o'sish sur'atlari oxirgi 2 yilda kamayganiga e'tibor qarastish lozim. Chunki, 2014-yilda o'sish farqi 208.0 mlrd so'mga, 2015-yilda 386,3 mlrd so'mga teng bo'lgan bo'lsa, o'tgan 2016-yilda esa 130,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu jamg'arma faoliyatining sustlashganidan emas, balki boshqa daromad manbalari ulushining ortganligidan dalolat beradi.

Jumladan, daromadlar tarkibida O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki sotib olinayotgan avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tganlik uchun yig'imlar ulushi ham yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, ushbu yig'imlar hajmi 2014-yilda 364,4 mlrd so'mni, 2015-yilda 448,6 mlrd so'mni hamda 2016-yilda 510,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Joriy yilda ushbu ko'rsatkich yanada ortib, umumiy summa 550,0 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda. Demak, yuqori o'sish sur'atlari kelgusi yillarda ham saqlanib qolishi mumkin. Respublika Yo'l jamg'armasi daromadlari tarkibida xalqaro moliya institutlarining zayomlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi ushbu jamg'arma davlat maqsadli jamg'armalari orasida o'zining investitsion faolligi bilan ajralib turadi. Xalqaro manbalar hisobidan shakllangan moliyaviy resurslar doimiy yillik o'sish tendensiyasiga ega.

Bir avtotashuvchi uchun xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o'tishi uchun yig'imlar (valyuta tushumlarining so'mdagi ekvivalenti) ham jamg'arma daromadlari tarkibida o'izga xos o'rinni egallaydi. Ushbu manba hisobida turli yillarda o'rtacha 50-55 mlrd so'mga teng mablag'lar jamg'arilgan. Bu umumiy daromadlar hajmiga nisabat 1,8-2,0 % demakdir.


9-jadval

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasining 2014-2017 yillardagi xarajatlari tarkibi tahlili³⁰

Sifatkiçlar	2014-yil		2015-yil		2016-yil		2017-yil(prog)
	mlrd. so`mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so`mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so`mda	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so`mda
Xarajatlarning jami, shu jumladan	2065,6	100,0	2782,6	100,0	3214,4	100,0	3424,9
umfiydalanuvdagi avtomobil yo'llarini loyihalashtirish xarajatlari	5,8	0,2	15,0	0,4	17,6	0,5	20,0
umfiydalanuvdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya xarajatlari	969,9	27,9	1 467,9	42,2	1606,9	46,2	2006,7
Jumladan, xorijiy moliya institutlari mablag`lari		-	584,6	16,8	529,1	15,2	536,7
umfiydalanuvdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash xarajatlari	647,9	18,6	838,9	24,1	735,6	21,1	752,4
umfiydalanuvdagi avtomobil yo'llarini saqlash uchun harid qilingan mashina va mexanizm xarajatlari	88,5	2,5	120,0	3,4	101,5	2,9	980,0
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari	4,3	0,1	5,6	0,2	6,6	0,2	7,3
"Avtoyo'l" DAK boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari	1,5	0,0	2,3	0,1	2,8	0,1	3,3
"Avtoyo'l" DAK hududiy yo'llardan fiydalanish tashkilotlarini boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari	8,2	0,2	12,5	0,4	13,3	0,4	17,6
umfiydalanuvdagi avtomobil yo'llarida sodir bo'lgan tabiiy ofat natijalarini oldini olish va bartaraf etish xarajatlari	48,8	1,4	110,0	3,2	80,3	2,3	100,0
umfiydalanuvdagi avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash va saqlash xarajatlari bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarning qo'shimcha xarajatlari	240,8	6,9	100,0	2,9	-	-	-
qo'shimcha xarajatlarning qo'shimcha xarajatlari	48,6	1,4	109,2	3,1	108,8	3,1	141,8
qo'shimchalariga qoldiq		-		-	10,7	0,3	294,4

³⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455, 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699, 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454 sonli qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jamg'armaning jami xarajatlari 2014-yilda 2065,0 mlrd so'mni, 2015-yilda 2782,6 mlrd so'mni hamda o'tgan 2016-yilda esa 3214,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu yilgi byudjet parametrlariga ko'ra esa, jamg'arma xarajatlari 3424,9 mlrd so'mdan iborat bo'lishi prognoz qilingan. Bevosita jamg'arma xarajatlari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, Respublika Yo'l jamg'armasi o'z xarajatlari xilma-xilligi bilan boshqa maqsadli jamg'armalardan ajralib turadi. Jadvalda aks ettirilganidek, umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish xarajatlari eng yuqori ulushni egallagan. Mazkur xarajatni moliyalashtirishda 2013-yilda 916,6 mlrd so'm ajratilgan bo'lsa, otgan 2016-yilda esa 1606,9 mlrd so'm sarf qilingan. Joriy yil byudjet prognoziga ko'ra esa, yana ham ko'proq, ya'ni 2006,7 mlrd so'm aynan ushbu xarajat uchun yo'nlatirilishi ko'zda tutilgan. Bu esa o'z o'rnida yurtimiz transport yo'llarini jahon standartlari darajasiga olib chiqishda ulkan qadamlardan biri hisoblanadi.



9-rasm. Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash xarajatlarining harakati tahlili³¹

Rasmda aks ettirilgan ma'lumotga e'tibor beradigan bo'lsak, jamg'armaning asosiy xarajatlaridan hisoblangan umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash xarajatlarining o'zgaruvchan harakatiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu xarajat uchun ajratilgan mablag'lar jami miqdori 2013-yilda 658,4 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, kelgusi yili biroz kamroq 647,9 mlrd so'mdan iborat bo'lgan. Keyinchalik, 2015-yilda bu summa yuqori o'sish sur'atini ko'rsatib, 838,9 mlrd so'mga yetgan. Biroq o'tgan 2016-yilda ushbu xarajat turi uchun yo'naltirilgan xarajat miqdori yana kamaygan va 735,6 mlrd so'mni qayd etgan. Joriy yilgi byudjet parametrlari va prognozlariga tayanib shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur xarajatni moliyalashtirish uchun 752,4 mlrd so'm yo'naltiriladi va bu o'tgan yilgiga nisbatan 16,8 mlrd so'mga ko'p demakdir.

Mamlakatimizda avtomobil yo'llari va sun'iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va foydalanish jarayoniga kompleks yondashish asosida yo'l xo'jaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, loyihalashtirish va yo'l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to'laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4954 farmoniga binoan, Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi («O'zavtoyol» DAK) negizida O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tashkil etiladigan bo'ldi.

Endilikda, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi: majburiyatlar va shartnomalar, shu jumladan, xalqaro shartnomalar bo'yicha Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat-aktsiyadorlik kompaniyasining («O'zavtoyol» DAK) huquqiy vorisi hisoblanadi hamda avtomobil yo'llari sohasida maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

³¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455, 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699, 2017-yil 29-dekabrda PQ-3454 sonli qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadvalda «O'zavtoyol» DAK boshqaruv apparatini hamda hududiy yo'llardan foydalanish tashkilotlarini boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular jami xarajatlar tarkibida 2013-yilda 8,3 mlrd so'm bilan 0,3 % ni, 2014-yilda 9,7 mlrd so'm bilan 0,31 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yildan boshlab yuqoriroq ko'rsatkichni, ya'ni 14,8 mlrd so'mga teng 0,5 ni egallagan. O'tgan 2016-yilda esa, 16,1 mlrd so'm mablag'lar aynan shu tashkilot xarajatlari uchun yo'naltirilgan. Joriy yil ham ushbu xarajatlar salmog'i oshishi prognoz qilingan bo'lib, jamiga nisbatan 0,6 % ga teng bo'lgan 22,0 mlrd so'm bo'lishi rejalashtirilgan.

Umumiy nuqtayi nazardan, Respublika yo'l jamg'armasi ham daromadlarining shakllanish manbalari ham xarajatlarning xilma-xilligi nuqtayi nazaridan ham iqtisodiy barqaror jamg'arma hisoblanadi. Ushbu jamg'arma faoliyatini yanada rivojlantirish hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismiga aylantirishda bajarilayotgan ishlar sifatini ularga sarflanayotgan moliyaviy resurslarga munosib holatda bo'lishini nazorat qilib borish muhim deb hisoblaymiz. Chunki, talabga javob bermaydigan qurilish obyekti, juda qisqa vaqt ichida yana ta'mirtalab holatga kelishi va qoshimcha xarajat talab qilishi mumkin. Agar ushbu vazifa bajarilsa, jamg'arma o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni qo'shimcha xarajatlarsiz va daromatlardan samarali foydalangan holda amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

Umumiy nuqtayi nazardan, Respublika yo'l jamg'armasi ham daromadlarining shakllanish manbalari ham xarajatlarning xilma-xilligi nuqtayi nazaridan ham iqtisodiy barqaror jamg'arma hisoblanadi. Ushbu jamg'arma faoliyatini yanada rivojlantirish hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismiga aylantirishda bajarilayotgan ishlar sifatini ularga sarflanayotgan moliyaviy resurslarga munosib holatda bo'lishini nazorat qilib borish muhim deb hisoblaymiz. Chunki, talabga javob bermaydigan qurilish obyekti, juda qisqa vaqt ichida yana ta'mirtalab holatga kelishi va qoshimcha xarajat talab qilishi mumkin. Agar ushbu vazifa bajarilsa, jamg'arma o'z oldiga

qoʻygan maqsadlarni qoʻshimcha xarajatlarsiz va daromadlardan samarali foydalangan holda amalga oshirishi mumkin boʻladi.

Avtomobil yoʻllari va sunʼiy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish ishlariga kompleks yondashish asosida yoʻl xoʻjaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, bu borada loyihalashtirish va yoʻl-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan toʻlaqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoʻl xoʻjaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda tugatilayotgan Avtomobil yoʻllari qurish va foydalanish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi (“Oʻzavtoyol” DAK) negizida Oʻzbekiston Respublikasi Avtomobil yoʻllari davlat qoʻmitasini tashkil etish nazarda tutiladi.

2-bob boʻyicha xulosa

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ikkinchi bob boʻyicha quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Ijtimoiy yoʻnaltirilgan davlat maqsadli jamgʻarmalari doimiylik xarakteriga ega boʻlib, mamlakat ijtimoiy iqtisodiy-siyosatini olib borishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ularning tashkil etilishi, miqdori va faoliyati yoʻnalishi, avvalo, mamlakat aholisi soniga, demografik tarkibiga va ijtimoiy taʼminlanganlik darajasiga bogʻliq. Shuningdek, ular notijorat maqsadda tashkil etiladi. Biroq oʻz aktivlarini kengaytirish maqsadida, investitsion loyihalarda hamda fond bozorida oʻzlarining boʻsh turgan resurslari orqali professional ravishda ishtirok etishlari mumkin.

2. Moliya Vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda yetakchi oʻrinni egallaydi. Ushbu jamgʻarma oʻz daromad manbalarining oʻzgarmasligi va xarajatlar manzilligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek jamgʻarma oʻz moliyaviy salohiyatini yildan yilga yaxshilab bormoqda. Pensiya jamgʻarmasidan yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi hamda zarur ish stajiga ega boʻlmagan keksa

yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa kabi ta'minot turlari ajratiladi.

3. Iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etishdan asosiy maqsad – iqtisodiyotning oqsayotgan yoki doimiy ravishda yangilanib turishi lozim bo'lgan tarmoq va sohalarni qo'llab quvvatlash maqsadida tashkil etiladi. Bunday jamg'armalar odatda vaqtinchalik xarakter kasb etadi. Ularning qo'nimsizligi iqtisodiyotning notekis rivojlanganidan emas, balki, rivojlanish strukturaviy ko'rinishda olib borilayotganidan darak beradi. Ushbu jamg'arma moliyaviy mablag'lari aksariyat hollarda uzoq muddatli strategik dastur asosida safarbar etiladi.

4. Respublika Yo'l jamg'armasi tashkil etilgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat avtomobil hamda temiryol transporti tizimini jahon standartlari talabiga javob beradigan holatga olib kelish maqsadini ustuvor qilib belgiladi. Avtomagistrallar barpo etish, tranzit yo'llar sifatini yaxshilash, yagona temir yo'llar tizimini yaratishga keng ahamiyat qaratildi. Bundan tashqari mamlakat ichki avtomobil yo'llarini aholi ehtiyojidan kelib chiqib bosqichma-bosqich ta'mirlab borish ishlari olib borilmoqda. Jamg'armaning Vazirlar Mahkamasi huzuriga o'tkazilishi esa, uning faoliyatida yangi bosqich boshlanganidan darak beradi. Endilikda jamg'arma bevosita Ijro hokimiyati nazorati va ko'magida o'z maqsadlarini amalga oshiradi. Jamg'arma daromadlari har yilgi investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar moliyalashtirish manbalari qatoridan joy oladi.

5. Yuqorida ko'rib o'tilgan jamg'armalarning daromad va xarajatlari miqdori oxirgi yillarda ijobiy o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Mazkur jamg'armalar mamlakatimizda eng ahamiyati yuqori bo'lgan sohalarni moliyalashtirishini inobatga oladigan bo'lsak, ularning daromad va xarajatlari o'rtasidagi nisbat jahon moliya ekspertlari tomonidan belgilangan standartlarga to'la javob bera oladi.

3-BOB. IQTISODIY ISLOHATLARNING CHUQURLASHUVI SHAROITIDA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

3.1. Davlat maqsadli jamg'armalari moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda xorij tajribalari

Ma'lumki, xorijiy mamlakatlar moliya tizimida maqsadli fondlar alohida o`rin tutadi. Ularda jamlanadigan mablag`lar hajmi yuqori bo`lib, masalan, Fransiyada maxsus fondlarning miqdori jihatidan mamlakatning davlat byudjetiga yaqin. Yaponiyada davlat xarajatlarining yarmidan ko`pi ana shunday jamg`armalar hisobidan moliyalashtirilsa, Buyuk Britaniyada bu ko`rsatkich byudjetning uchdan bir qismini tashkil etadi. Albatta, bu fondlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud.

Davlat bu fondlarning mablag`lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko`rsatadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga asosan kambag`allik va aholi o`rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish maqsadida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo`yicha davlat chora-tadbirlari tizimi ijtimoiy siyosat deb yuritiladi. Keng ma'noda "ijtimoiy siyosat" deganda shaxsning hayot faoliyatini shunday sharoitlarini yaratish va tutib turish bo`yicha ko`rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi. U o`z navbatida shaxsning rivojlanishiga yordam beradi va uning ijodiy imkoniyatlarini to`liq namoyon qilishini rag`batlantiradi.

Amaliyotdan ma'lum bo`lishicha, g`arb mamlakatlarida fondlar va notijorat tashkilotlarning vakolatli mulk negizida tuzish keng tarqalgan. Fondlar va notijorat tashkilotlarning ayni shu turlari muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga

ko`proq yo`naltirilgan. Bu tashkilotlar byudjetga bir qator manbalar: ta'sischi larning ta'sis hujjatida belgilangan tushumlar, hukumat subsidiyalari va soliq to`lashdagi imtiyozlari kurinishida, a'zolarning badallik vzoislari va ixtiyoriy badallari, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning mulkiy badallari va xayriya ulushlari hisobidan, notijorat tashkilotlar tuzilishiga sabab bo`lgan ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo`lgan tadbirkorlik faoliyatidan olingan tushumlar, aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog`ozlardan olinadigan dividendlardan olinadigan daromadlardan shakllandi.

Yaponiyada juda ko`p kredit fondlari mavjud. Jumladan. moliyaviy korporatsiyalar fondlari (uy-joy qurilishini moliyalashtirish korporatsiyalari, kichik va o`rta korxonalarni moliyalashtirish korporatsiyalari) va maxsus banklar jamg`armalari (Yaponiya eksport va import banki, Yaponiya rivojlantirish banki, qishloq xo`jaligi uchun markaziy kooperativ banki) mavjud. Moliyaviy korporatsiyalar jamgarmalari byudjet mablaglari, shuningdek, beriladigan kreditlar foizlari hisobiga tashkil etiladi. Bu jamg`armalar inqirozga uchragan korxonalarni moliyalashtirish yoki boshqa kredit manbasiga ega bo`lmagan kompaniyalarga moliyaviy yordam berish maqsadida ularga chegirma foizlarda qarz beradi.

Davlat moliya institutlari milliy iqtisodiyotning ustuvor joriy vazifalarini har tomonlama va tezkor qo`llab-quvvatlash hamda amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu institutlar mintaqaviy rivojlanishni moliyalashtirish tizimini tashkil qiladi. Davlat moliya institutlari mustaqil bo`lib, "o`z-o`zini moliyalashtirish" tamoyiliga asoslangan holda ish olib borib, investitsiyalash va kreditlar bo`yicha mustaqil hamda xolis, siyosiy va moliyaviy nuqtai nazardan qarorlar qabul qiladi.

Kredit jamg`armalari davlat jamg`arma kassalari va boshqa kredit tashkilotlari ixtiyoridagi mablag`lar bo`lib, qaytarib berish va foiz to`lash sharti bilan beriladi. Bu jamgarmalardan davlat buyurtmalari bajariladi va mamlakat bevosita rivojlanib boradi. Shuni hisobga olgan holda, har qanday iqtisodiyotda ham maqsadli jamg`armalarning mavjudligi shu davlatning barqaror taraqqiyot mezonidir.

Yaponiyada esa soliq tushumlarini qayta taqsimlashni amalga oshiruvchi maxsus hisobraqam mavjud. Soliq tushumlarinnng ma'lum qismi uning hisobraqamida jamlanib, ehtiyojlariga ko`ra mahalliy byudjetlarga o`tkazib beriladi. Uning qayta taqsimlanishi aholi sonidagi farqlar va hududlar iqtisodiyoti rivojlanish darajasiga qarab, amalga oshiriladi³².

Sug`urtalanuvchilarning badallari bevosita ularning foydasidan ajratiladi va mohiyatiga ko`ra, to`g`ri maqsadli soliq hisoblanadi. Badal stavkalari ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda daromad hajmidan qat'iy nazar, ma'lum foizlarda belgilanadi va 6 yillik maksimal badal summasi yoki maksimal daromad stavkasini belgilashda inobatga olinadi. Sug`urtalanuvchilar va tadbirkorlar uchun esa sug`urta stavkalari amal qiladi. Ba'zi davlatlarda (GFR) stavkalar ikkala guruh to`lovchilari uchun bir xil bo`lsa, boshqa bir mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya) stavkalar turlicha bo`ladi. Ko`p davlatlarda sug`urtalanuvchilar uchun stavkalar daromadiga ko`ra foiz hisobida belgilanadi, tadbirkorlar uchun esa jami ish haqi jamg`armasiga emas, balki oldindan belgilab qo`yilgan jami maksimal ish hakiga qarab belgilanadi va maksimal hajmdan oshgan summa hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham kompaniyada malakali mutaxassislar ulushining ko`pligi ular ish haqining ijtimoiy jamg`armalarga shunchalik kam pul mablag`lari o`tkazishiga olib keladi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, maxsus fondlarnng mablag`larini ishlatilishiga qarab iqtisodiy, ijtimoiy, shaxsiy va mol-mulkini sug`urtalash, ilmiy-tadqiqot, harbiy-siyosiy, xalqaro fondlarga bo`linadi. Iqtisodiy fondlarning mablag`lari xususiy kompaniyalar va kam rentabelli davlat korxonalarini, asosan, iqtisodiyotni rivojlanish sikllarining krizis paytida moliyalashtirish uchun yo`naltiriladi.

AQShda federal byudjetning mablag`lari hisobidan shakllanadigan iqtisodiyotni qayta ko`rish va rivojlantirish fondi mavjud. Uning asosiy vazifasi — xususiy sanoat kompaniyalarini bank operatsiyalarida sug`urtalashdan iborat.

³²Dr.Catherine Zahn “Mental health needs targeted federal funds” [CMAJ](#). 2015 Nov 3; 187(16): E465–E466. (www.sciencedirect.com www.scopus.com)

Fransiyada ikkinchi jahon urushi tamom bo`lgandan keyin «Modernizatsiya fondi» shakllandi, boshqa fondlar bilan birlashgandan so`ng, 1955-yilda «Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish fondi» shakllantirildi. Fond investitsiya dasturlarini, shuningdek, mintaqalarni rivojlantirish rejalarini, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni, ishchi kuchlarini qayta tayyorlash va sanoat korxonalarini industrial markazlardan boshqa rayonlarga o`tkazishni moliyalashtiradi. Milliylashtirilgan va xususiy korxonalariga umudavlat rivojlantirish dasturlari asosida mablag`lar qaytarilmaydigan ssuda va uzoq muddatli imtiyozli kredit ko`rinishida beriladi.

Xorijiy mamlakatlarda amaldagi maqsadli fondlarning tasniflanishini ko`rib chiqamiz.

Maqsadli jamg`armalar huquqiy maqomi va ishlatilish maqsadlariga ko`ra farqlanadi. Huquqiy maqomiga ko`ra maxsus fondlar davlat va mahalliy fondlarga ajratiladi. Federativ davlatlar (AQSH, Kanada)da federatsiya a'zolari ham maxsus fond tashkil qilish huquqiga ega. Davlat maxsus fondlari markaziy hokimiyat ixtiyorida bo`ladi. Bularga eng muhim fondlar: investitsiya, valyuta, ijtimoiy sug`urta va boshqa jamg`armalarni kiritishimiz mumkin. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyorida esa ko`p miqdorda mahalliy jamg`armalar mavjud bo`lib, ulardan eng kattasi zayom jamg`armasi hisoblanadi. Buyuk Britaniyada bunday jamg`armalar XIX asrdan buyon mavjud, bulardan, asosan, kapital jamg`armalarni moliyalashtirishda foydalaniladi.

AQSH da 2 ta yirik fond mavjud. Ular «Milliy ilmiy fond» va «Byuro standartlarining ilmiy fondi» deyiladi. Birinchi fondning mablag`lari Federal byudjetdan ajratilagan mablag`lar, sanoat korxonalarining foydasidan ajratmalar hisobiga va universitet va kollejlarning ajratmalari hisobga shakllanadi. Fondan fundamental tadqiqot dasturlarini amalga oshirish, ilmiy izlanishlar uchun mukofotlar, ilmiy markazlar quriliish uchun, kadrlar tayyorlash kabi xarajatlar moliyalashtiriladi.

Ikkinchi fondan kompaniyalarning tadqiqotlar o`tkazishiga sharoit yaratish, ilmiy izlanishlarni sanoat va qishloq xo`jaligiga yetkazish uchun moliyalashtiriladi.

Buyuk Britaniyada davlat byudjetiga bog`lik bo`lmagan va alohida mustaqil balansga ega bo`lgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish «Milliy korporatsiya fondi» mavjud. Uning mablag`lari yangi ixtirolarni ishlatish huquqi beradigan litsenziyani sotishdan tushgan mablaglar hisobiga shakllanadi. Davlat fondga muddatsiz avanslar va har yili subsidiyalar beradi. U ilmiy tekshirish natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etayotgan xususiy korxonalarini kapital qo`yilmalarini va o`nta bog`liq muammolarni hal qilish xarajatlarini moliyalashtiradi.

Buyuk Britaniyada Milliy korporatsiya fondi davlat byudjetidan holi ravishda tadqiqotlarni rivojlantirish bo`yicha mustaqil balansga ega. Davlat bu jamg`armaga muddatsiz avans va yillik subsidiyalar beradi. Bu mablag`lar hisobidan esa turli muammolarning ilmiy yechimlari va olingan natijalarni ishlab chiqarishga tatbiq etuvchi xususiy muassasalar faoliyati moliyalashtirib boriladi. Shuningdek, davlat universitetlari, milliy va xususiy kompaniyalar laboratoriyalarida olib boriladigan tajriba ishlarini qo`llab-quvvatlab, ularni sanoatda o`zlashtirilishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

«Yaponiyada davlatning maxsus fondlari moliya resurslarini tashkil etishning shakli bo`lib, ular markaziy yoki mahalliy hukumat tasarrufida va maqsadga qaratilgan holda mavjud bo`ladi. Ular moliya tizimining muhim bo`lagi hisoblanadi. Bu fondlarni tashkil etish va sarflash tartibi moliya huquqi orqali aniq va qat`iy belgilanada. Byudjetdan tashqari fondlar davlat mulki hisoblanadi va ko`rsatilganlaridan boshqa maqsadlarga sarf qilinishi mumkin emas. Byudjetdan tashqari fondlar markazlashgan yagona pul fondi - byudjetdan ancha avval maxsus fondlar va o`ziga xos hisobraqamlar ko`rinishida mavjud bo`lgan. Davlat o`zining faoliyat doirasini kengaytirilishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj seza boshladi. Ularni qoplash uchun mablag`lar maxsus fondlarda to`plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi»³³. Bu fondlar hajmining kengayishiga bir qator sabablar mavjud: birinchidan, davlat organlarida tadbirkorlikning xo`jalik hayotiga aralashishi va ularni moliyaviy qo`llab-quvvatlash uchun qo`shimcha mablag`lar paydo bo`lmoqda, ikkinchidan, bu fondlar byudjetdan mustaqil holda davlat

³³www.investopedia.org . Financial dictionary.Economical encyclopedia.

tomonidan alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan, uchinchi, byudjetdan tashqari fondlar ma'lum sharoitlarda, ya'ni aktiv qoldiqqa ega bo'lganda byudjet taqchilligini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Germaniyadagi ijtimoiy sug'urta fondi tarkibida juda ko'p avtonom fondlar bor, ular ijtimoiy sug'urtaning alohida turlarini qamrab oladi. «Ishchi va xizmatchilarning pensiya fondi». «Bemorligi uchun sug'urta fondi», «Ishsizlikdan sug'urtalash fondi» va boshqalar.

Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy fond mavjud: «Milliy sug'urtalash fondi» va «Davlat tashkilotlarining pensiya fondi».

Yaponiyada byudjetdan tashqari fondlarning faoliyati — milliy daromadni davlat tomonidan aholining ma'lum ijtimoiy guruhlar foydasiga qayta taqsimlash usulidir. Yaponiyada quyidagi byudjetdan tashqari fondlar faoliyat ko'rsatadi: «Soglikni saqlashni sug'urtalash fondi». «Milliy pensiya fondi». «Ishlab chiqarishda ko'rilgan zararni sug'urtalash fondi». «Ishsizlikni sug'urtalash fondi».

Jahon tajribasida byudjetdan tashqari fondlarning juda ko'p turlari mavjud. lekin bu fondlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Ijtimoiy yo'naltirilgan fondlar (pensiya fondlari, majburiy tibbiy sug'urta fondlari, davlat bandlik fondlari, ijtimoiy sug'urta fondlari, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash umummilliy fondlari) va o'z yo'nalishi va manbalariga ega iqtisodiy fondlar.

Xorijiy tajribalar guvohlik beradiki, keksalarni moddiy ta'minlash dasturlarini bajarishga imkon yaratuvchi kuchli moliyaviy va boshqaruv mexanizmini yaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Ko'pgina davlatlar bir qator pensiya islohotlarini amalga oshirdilar. Chexiyada pensiya bilan ta'minlashni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari - zararli va og'ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilarning sug'urta qilingan badallariga qo'shimcha badallarni kiritish, to'langan badallar va olingan pensiyalar o'rtasida aloqani kuchaytirish, ko'p rejali ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish, individual pensiya rejalarini imkoniyatlarini kengaytirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015-2020 yillarda 65 yoshgacha oshirishdan iborat.

Quyidagi jadvalda xorijiy davlatlarda pensiya yoshining chegaralari va pensiya badallarining miqdori ko'rsatilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlarda pensiyaga chiqish yoshi bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasida derli farqlar yo'q, fondlarga pensiya badallarini to'lashda og'irlik ish beruvchi va ishlovchi (xodim)ga teng barobar taqsimlangan.

10- jadval

Xorijiy davlatlarda pensiya yoshi va pensiya badali miqdori³⁴

Mamlakatlar	Pensiya yoshi		Pensiya badali miqdori (ish haqidan)	
	Erkaklar	Ayollar	Ish beruvch	Ishlovchi
Buyuk Britaniya	60	60	10	10
Germaniya	65	65	10	15
AQSh	65	65	6,2	6,2
Fransiya	60	60	9,8	6,2
O'zbekiston	60	55	24,8	6

Qozog'istonda va Belarussiyada 2011 yilda o'rtacha pensiyaning miqdori tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorni tashkil etdi. Pensionerlar ayniqsa kam ta'minlangan va himoyalangan hayotning doimiy qimmatlashuvidan boshqalarga nisbatan ko'proq jabrlanadigan aholi guruhlaridan biriga aylandi. Pensiyaning xaridorlik qobiliyati doimiy ravishda pasayib bormoqda. Hamdo'stlik mamlakatlarida kam ta'minlangan aholining aksariyat qismini aynan pensionerlar tashkil etadi. Pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligiga MDX barcha mamlakatlarida kuzatilayotgan qoniqarsiz demografik vaziyat, aholining keksayib borishi, iqtisodiy band aholiga nisbatan pensionerlar ulushi doimiy ko'payib, pensioner va ishlovchi shaxslar soni o'rtasidagi o'zaro nisbat, bugungi vaqtda iqtisodiy taraqqiyot etgan mamlakatlarga qaraganda past bo'lsada, yanada qisqarib borishi kuchli ta'sir etmoqda. Islohotlar jarayonida pensiya xizmati darajasini ko'tarish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, pensiya tizimlarining moliyaviy mustahkamlanishini ta'minlash, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda ishchilar

³⁴World Population Ageing 1950-2050. NY.2009. –P.34

o'zining pensiyasini shakllantirishdan manfaatdorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Oxirgi o'n yillik davr davomida Xamdo'stlik davlatlarining pensiya ta'minoti sohasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Pensiya to'g'risida milliy qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Davlat nafaqa tizimining sug'urta tamoyillariga o'tishi amalga oshirildi. MDX mamlakatlarida o'zining moliyaviy asosi bo'lgan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armalariga tayanadigan yangi pensiya tizimlari yaratildi. Mahsulotlar qimmatlashi, narxlar oshishi munosabati bilan pensiyalar miqdorini indeksasiyalash doimiy ravishda amalga oshiriladi. Sug'urta qilingan shaxslarni yakka tartibda hisobga olish amaliyoti joriy etildi. Qator mamlakatlarda pensiyalar miqdorini har bir ishchining mehnat hissasiga imkon qadar uzviy bog'lashga harakat qilindi va bu maqsadda pensiyalar hisoblash tartibi o'zgartirildi. Pensiya tizimi asosiy ijtimoiy vazifasini, ya'ni mehnat qilishga layoqatsizlik sababli yo'qotilgan daromad miqdorini maqbul darajagacha tiklash yo'li bilan muxtojlikni kamaytirish va qashshoqlikni oldini olish vazifasini bajarmoqda.

3.2 Davlat maqsadli jamg'armalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalada investitsiya faoliyatini amalga oshirishning katta ahamiyatga ega, uni quyidagilar bilan izohlanadi. Birinchidan, investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Ikkinchidan, import o'rini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi. Uchinchidan, biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi. Shuningdek, korxonaning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi, tabiiy resurslarni

qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi. Shunday qilib, investitsiya kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishning muhim omilidir.

Investitsiyalar har qanday milliy iqtisodiyot uchun muhim va dolzarb resurs hisoblanadi. Investitsiyalar YaIMning bir bo'lagi bo'lib, agar YaIM hajmi ortsa, investitsiya hajmi ham ortadi, davlatning ixtiyoridagi investitsiya resurslarini tashkil etadi. Davlatning investitsiya siyosati doirasini kengaytiradi. Davlat investitsiya siyosatining uch jihatiga e'tibor beradi.

1. Davlatning byudjet daromadlari va olgan qarzlari hisobidan mablag'larni investitsiyaga yo'naltirish.

2. Davlat tomonidan milliy va xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish.

3. Davlat sektori bilan xususiy sektorlardagi investitsiya faoliyatini rag'batlantirish.

Markazlashgan kapital qo'yilmalar manbalari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'lari;
- davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari;
- O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati bilan chet el investitsiyalari

va kreditlari.

Markazlashmagan kapital qo'yilmalar manbalari quyidagilardan iborat:

- qo'shma, xorijiy, xususiy, O'zbekiston Respublikasi noreze-dentlarining xususiy korxonasi mablag'lari;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mablag'lari;
- tijorat banklarining kreditlari;
- aholining mablag'lari.

Mamlakatimizda qulay investitsiya muxitini yaratish, mahalliy investorlarni faoliyatini kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizga oqilona jalb etish va ulardan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini ta'kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga

yoʻnaltirilgan kapital mablagʻlar, investitsiyalar tobora oʻsib borayotganida, bu koʻrsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan oʻrtacha 26 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur. Oʻtgan yilda iqtisodiyotimizga 49 trillion 476 milliard soʻm miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi koʻrsatkich 2015-yilga nisbatan 12,5 foizga oʻsdi.³⁵

Jahon tajribasida maqsadli jamgʻarmalarining investitsion faolligini oshirishda ularning quyidagi ustunliklari yuqori samara keltirishi mumkinligi qayd etiladi. Xususan,

- Davlat maqsadli jamgʻarmalari aynan bitta soha rivoji yoʻlida xizmat korsatishi uchun tashkil etiladi hamda jamgʻarma daromad va xarajatlari monitoringgi qatʼiy nazorat ostida olib boriladi. Bu esa oʻz oʻrnida, ushbu sohaga yoʻnaltirilayotgan investitsiyalarning manzilliligi, innovatsion loyihlarning toʻliq amalga oshirilishi yuqori iqtisodiy samaraga erishish uchun muhim omil hisoblanadi.

- Maqsadli jamgʻarmalarda shakllangan mablagʻlar davlat xarajatlarini davlat byudjeti mablagʻlaridan foydalanmasdan moliyalashtirishda sarflanishi ushbu jamgʻarmalar ahamiyatini yanada oshiradi. Sababi, tejalgan davlat byudjeti mablagʻlarini boshqa maqsadlarga, xususan, investitsion dastur tarkibiy qismlarini moliyalashtirishda qoʻshimcha resurs sifatida foydalanish imkoni tugʻiladi. Yoki aksincha, maqsadli jamgʻarma fondlari hali tugallanmagan investitsion loyiha moliyaviy resurslari qatoriga qoʻshilishi ham mumkin.

Investitsiya faoliyatining rivojlanishida malakat hududida va undan tashqarida yirik investitsion fondlar yetarli darajada taraqqiy etgan boʻlishi zarur. Xorij tajribasidan kelib chiqadigan boʻlsak, mamlakatimiz amaliyotida ham davlat investitsiya fondlarini tashkil etish yoki mavjud davlat maqsadli jamgʻarmalarining investitsion faolligini oshirish ustuvor ahamiyat kassb etishi mumkin. Sababi ushbu jamgʻarmalarda, yirik moliyaviy resurslar jamgʻariladi hamda boʻsh turgan mablagʻlar investitsion faoliyatga yoʻnaltirilishi natijasida moliyaviy samaraga erishish mumkin. Bu borada shu kunga qadar bir qator istiqbolli ishlar amalga

³⁵Oʻzbekiston Iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. T.: CER. 2017 yil. 38-bet

oshib kelinmoqda. Xususan, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 iyundagi «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 110-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'lik hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazilishi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini afzalliklari to'g'risida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, ushbu tizim barqaror ishlashi uchun Xalq bankini bosqichma - bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi hamda dasturlari bilan ta'minlash tadbirlarini amalga oshirishni belgilab berildi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktyabrdagi 88- son va 282-v son Qarorlari bilan «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan moliyaviya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi. JBPT mablag'lari quyidagi ob'ektlarga joylashtirilishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlariga:
- ipoteka obligatsiyalariga:
- amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o'tgan korporativ qimmatli qog'ozlarga:
- banklardagi milliy va chet el valyutasidagi muddatli depozitlarga:
- qonunchilikda belgilangan, muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan har bir holat uchun alohida tasdiqlangan va Nizomning 27 - bandi talablariga javob beradigan boshqa ob'ektlarga.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi (JBPT) mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo'yicha Muvofiqlashtirish Kengashi tashkil etildi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash vazifalari quyidagilardan iborat:

- muddatlilik, qaytarishlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalash tamoyillari asosida JBPT mablag‘larini joylashtirish ob‘ektlarini belgilash;
- JBPT mablag‘larining xar bir joylashtirish ob‘ektiga joylashtiriladigan eng ko‘p hajmini aniqlash;
- JBPT mablag‘larini joylashtirish ob‘ektlarini risklar bo‘yicha guruhlariga ajratish;
- JBPT mablag‘larini joylashtirish va investitsiya kilishdan olingan daromaddan Xalq banki oladigan marja miqdorini belgilash va fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga hisoblanadigan foiz stavkasini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining qo‘shma qaroriga asosan “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini samarali joylashtirishni tashkil etish; Xalq banking JBPT mablag‘larini joylashtirish bo‘yicha majburiyatlari; Xalq bankida JBPT mablag‘larini hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari; JBPT mablag‘larini joylashtirish; JBPT mablag‘larini joylashtirish ob‘ektlariga qo‘yiladigan talablar; JBPT mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan mablag‘larini taqsimlash qoidalari o‘z ifodasini topgan. Nizom O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, jumladan moliya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab beradi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan daromadlarini taqsimlash Nizom bo‘yicha quyidagicha amalga oshiriladi:

- Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan daromad Xalq banki oladigan marja summasi chegirib tashlangandan so‘ng, har yili yil yakunida fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, ulardagi mavjud bo‘lgan qoldiq miqdoriga mutanosib ravishda o‘tkaziladi;

- Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromad, Xalq banki marjasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan Muvofiqlashtiruvchi Kengash tavsiyasiga asosan dastlab – avans qismi yil boshida 1 fevralgacha, uzil kesil – dekabrning oxirgi 10 kunligida belgilanadi;

- Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olinadigan marjani, Xalk banki va filiallari orasida taqsimlash tartibi Xalk banki tomonidan belgilanadi.

Pensiya fondining investitsion siyosati fond faoliyati barqarorligini ta'minlash, operatsiyalaridan foydani ko'paytirish, xatar darajasini pasaytirish, fond balansi likvidligini ta'minlab turish maqsadlarida fondning portfel investitsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratiladi. Investitsion siyosat pul mablag'larini fondning moliyaviy ehtyojlarini qondirishga safarbar etadi. Pensiya fondi faoliyatidagi xatar darajasini minimallashtirishda pul mablag'lari kelib tushishi va mablag'lar sarflanishini vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir. Davriy ravishda, to'lovlarni bajarishi muddatlari etib kelganda fond pul mablag'larining bir qismini portfel investitsiyadan bo'shatib oladi. Bu maqsadda fond investitsiyalarni ham, jalb etilgan mablag'larni ham vaqti va hajmi bo'yicha diversifikatsiyalaydi. Masalan, fond resurslari muddatlariga mos ravishda, portfelni ham mablag'larni shu muddatlarda daromadlarini boy bermasdan portfeldan bo'shatib olishni rejalashtirib shakllantirishi lozim. Soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida Pensiya fondi bo'sh pul mablag'larini turli moliyaviy dastaklarga joylashtiradi. Bu dastaklar orasida soliqqa tortilmaydiganlari ham bo'ladi, masalan, davlat obligatsiyalari.

Davlat maqsadli jamg'armalarining investitsion samaraodrligi deganda, nafaqat ularning resurslaridan investitsion maqsadlarda foydalanish balki, ular faoliyatida investitsiyalarni jalb etish salmog'ining yuqoriligi ko'rsatkichini ham tushunish mumkin. Xususan, jahon amaliyotida turli shakldagi investitsiya fondlarining boshqa turdagi maqsadli fondlar bilan hamkorlik qilishi, resurslar almashinuvi bilan bog'liq munosabatlar rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim rol o`ynaydigan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Yo`l jamg`armasi ham o`z oldiga qo`yilgan dasturiy maqsadlarni amalga oshirishda xorijiy investitsion fondler bilan hamkorlikni yo`lga qo`yib kelmoqda. Ushbu hamkorlikning istiqbollari quyidagilarda namoyon bo`lishi mumkin:

- birinchidan, yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining zamonaviy tarmog'ini yanada rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish;

- ikkinchidan, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish ishlariga yo'naltirilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish;

- uchinchidan, loyihalashtirish va yo'l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to'laqonli buyurtmachi xizmatini tashkil etish;

- to'rtinchidan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yo'l qurilishi ishlarida, yo'l-qurilish materiallari, mahsulotlar va konstruktsiyalarni ishlab chiqarishni texnik jihatdan jahon standartlariga olib chiqish;

- beshinchidan, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash, jihozlash hamda ulardan foydalanish chora-tadbirlarini tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq o'z vaqtida moliyalashtirishda mahalliy va xorijiy manbalardan samarali foydalanish;

- oltinchidan, avtomobil yo'llarini, ayniqsa, qishloq avtomobil yo'llarini rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda yangi tuzilma, yashash uchun qulay ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimiz aholisining turmush darajasini yaxshilash;

- yettinchidan, Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish va foydalanish instituti va kasb-hunar kollejlari negizida, jumladan, bevosita ishlab chiqarish korxonalarida, laboratoriyalarda va ilmiy-loyiha tashkilotlarida amaliy mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish yo'li bilan ta'lim sifatini oshirishni ta'minlash va umuman, soha uchun professional kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirishda xorijiy hamkorlikni yo`lga qo`yish;

- sakkizinchidan, mintaqaviy avtomobil yo'llarini saqlashga xorij hamda mahalliy yetuk xodim va mutaxassislarni jalb etgan holda, yo'llarni ekspluatatsiya qiladigan tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

- to'qqizinchidan, avtomobil yo'llarini pasportlashtirish va yo'llarning joriy holatini aks ettirgan holda, elektron ma'lumotlar bazasini yaratish.

Muxtasar qilib aytganda, ushbu vazifalarning amalga oshirilishi iqtisodiyot rivojiga, shahar vaqishloqlarimizni yanada obod qilish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

3-bob bo'yicha xulosa

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining uchinchi bob bo'yicha quyidagi xulosalar tayyorlandi:

Maqsadli fondlar tushunchasi jahon tajribasida ilk davlatchilik shakllari uzaga kelgan davrlarda paydo bo'lganligini inobatga olsak, ularning bugungi kunda rivojlanganlik darajasi tabiiy holdir. Ular tajribasidan maqsadli foydalanish esa, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida yaxshi samara berishi mumkin.

Amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, g'arb mamlakatlarida fondlar va notijorat tashkilotlarning vakolatli mulk negizida tuzish keng tarqalgan. Bu tashkilotlar byudjetga bir qator manbalar: ta'sisчилarning ta'sis hujjatida belgilangan tushumlar, hukumat subsidiyalari va soliq to'lashdagi imtiyozlari kurinishida, a'zolarning badallik vzooslari va ixtiyoriy badallari, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning mulkiy badallari va xayriya ulushlari hisobidan, notijorat tashkilotlar tuzilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidan olingan tushumlar, aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan olinadigan dividendlardan olinadigan daromadlardan shakllandi.

Huquqiy maqomiga ko'ra maxsus fondlar davlat va mahalliy fondlarga ajratiladi. Bizdagidan farqli o'laroq, bir qator davlatlar (AQSH, Kanada)da mahalliy hokimiyat organlari ham maxsus fond tashkil qilish huquqiga ega. Davlat maxsus fondlari markaziy hokimiyat ixtiyorida bo'ladi. Bularga eng muhim

fondlar: investitsiya, valyuta, ijtimoiy sug`urta va boshqa jamg`armalarni kiritishimiz mumkin.

Oxirgi o`n yillik davr davomida Xamdo`stlik davlatlarining pensiya ta`minoti sohasida muhim o`zgarishlar yuz berdi. Pensiya to`g`risida milliy qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Davlat nafaqa tizimining sug`urta tamoyillariga o`tishi amalga oshirildi. MDX mamlakatlarida o`zining moliyaviy asosi bo`lgan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armalariga tayanadigan yangi pensiya tizimlari yaratildi.

Mamlakatimizda so`nggi yillarda davlat maqsadli jamg`armalari moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishga katta e`tibor qaratilmoqda. Ularning investitsion faolligini qo`llab quvvatlash tobora davlat siyosati darajasiga ko`tarilmoqda. Jumladan, fuqarolarning jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti negizida shakllangan moliyaviy mablag`lardan investitsion maqsadlarda foydalanishga keng yo`l ochib berilgan. Xususan, "Jamg`arib boriladigan pensiya tizimi mablag`larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to`g`risida"gi Nizomda Xalq bankining JBPT mablag`laridan investitsion maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari va shartlari bayon etilgan.

Respublika Yo`l jamg`armasi o`z oldiga qo`yilgan maqsadlarni amalga oshirishda doimiy ravishda xorijiy investitsion fondlar va investorlar bilan hamkorlikni yo`lga qo`yib kelmoqda. Ushbu hamkorlik negizida xalqaro tajriba almashinuvi, kapoitalning samarali taqsimoti, yangi ish o`rinlari, mahalliy mutaxassislarning xorijda malaka oshirishi, va eng muhimi, bajarilayotgan ishlarning jahon standartlari darajasida bo`lishiga erishish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat maqsadli jamg'armalari iqtisodiyotning ustuvor sohalarini qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda har xil maxsus fondlar ko'magida aholiga sotsial xizmatlar ko'lamini kengaytirish kabi vazifalarni bajaradi. Odatda, maqsadli jamg'armalar ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan va iqtisodiy yo'naltirilgan jamg'armlarga ajratiladi. Ijtimoiy maqsadli jamg'armalar deganda, aholini hamda unga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar tushunilsa, iqtisodiy maqsadli jamg'armalarga esa, iqtisodiyot yetakchi tarmoq va sohalarini qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash yoki alohida tarmoqni yanada rivojlantirish uchun tashkil etiladi

Ijtimoiy yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalari doimiylik xarakteriga ega bo'lib, mamlakat ijtimoiy iqtisodiy-siyosatini olib borishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ularning tashkil etilishi, miqdori va faoliyati yo'nalishi, avvalo, mamlakat aholisi soniga, demografik tarkibiga va ijtimoiy ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Shuningdek, ular notijorat maqsadda tashkil etiladi. Biroq o'z aktivlarini kengaytirish maqsadida, investitsion loyihalarda hamda fond bozorida o'zlarining bo'sh turgan resurslari orqali professional ravishda ishtirok etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi Yo'l jamg'armasi o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda doimiy ravishda xorijiy investitsion fondlar va investorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib kelmoqda. Ushbu hamkorlik negizida xalqaro tajriba almashinuvi, kapitalning samarali taqsimoti, yangi ish o'rinlari, mahalliy mutaxassislarning xorijda malaka oshirishi, va eng muhimi, bajarilayotgan ishlarning jahon standartlari darajasida bo'lishiga erishish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida ilmiy rahbarimiz bilan birgalikda quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

- mamlakatimizda shakllangan va amalda bo'lgan pensiya ta'minoti tizimi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy ta'minot bo'yicha huquq va manfaatlarini har tomonlama inobatga olgan holda shakllantirilgan;

- pensiya va nafaqalar maksimal darajada fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi;

- pensiyalarni hisoblash, tayinlash va to'lash jarayoni ancha murakkab jarayon bo'lib, pensiya ishi mutaxassislaridan pensiya qonunchiligini mukammal bilishni, me'yoriy hujjatlarni bilishni va ularni amalda qo'llay olishni talab etadi;

- pensiyalarning bor-yo'g'i uch turi mavjudligi bilan birga, ular har biri bo'yicha keng tarkibdagi imtiyozlar tizimi mavjudligi bilan xarakterlanadi;

- Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda aholini pensiya tizimiga jalb etish qamrovini kengaytirish, ularni Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lanish tizimini takomillashtirib borish lozim. Bu borada mamlakatimiz va chet elda norasmiy ish bilan band bo'lgan fuqarolarni pensiya tizimiga jalb etish zarur bo'ladi. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, vaqtli matbuot va televideniye orqali aholini pensiya tizimiga jalb qilish va istiqbolda undan manfaatdorligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish kerak

- shu bilan birga, mavjud pensiya ta'minoti tizimi, uning moliyaviy barqarorligi masalalari, ijtimoiy sug'urta badallarining qoplash koeffitsientini oshirish muammolari, pensiyalarning o'rtacha miqdorlari, ularning to'lovga layoqatlilik darajasi bu tizimda islohotlarni davom ettirish zarurligini taqozo etadi.

Xulosalarimiz asosida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

Birinchi, ish haqi darajasining va uning mamlakat YaIMidagi ulushining past darajada bo'lishi hamda unga bog'liq ravishda pensiya badallari hajmining yuqori emasligini inobatga olib, mamlakatda bandlik darajasini oshirish, ish haqi darajasining oshishiga erishish lozim;

Ikkinchi, aholining demografik ko'rsatkichlarining yomonlashuvi, ya'ni qarib borish jarayonlari natijasida mehnatga qobiliyatli aholi bilan pensiya yoshidagi aholi o'rtasidagi nisbatning buzilib borayotganligi sababli davlat pensiya ta'minotiga muqobil pensiya tizimlarini shakllantirish maqsadga muvofiq;

Uchinchidan, Pensiya jamg'armasiga daromadlarning ko'payishiga to'sqinlik qiladigan yana bir omil – bu norasmiy bandlikning mavjudligi, ish beruvchilar tomonidan xodimlarni norasmiy ravishda yollanishi, ish haqlarining oshkor etilmasligi hisoblanadi. Norasmiy ravishda ishlovchi fuqarolar qarigan chog'larida pensiya olish huquqini beruvchi shartlarga javob bera olmay qoladilar, lekin ijtimoiy yordam so'rab baribir Jamg'armaga murojaat qiladilar, bu esa Jamg'armaning moliyaviy imkoniyatlarini cheklaydi, shu sababli iqtisodiyotning real sektorida ishlovchilarning rasman bandligini oshirish lozim;

To'rtinchidan, O'zbekistonda xususiy pensiya fondlarini tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda aholini pensiya tizimiga jalb etish qamrovini kengaytirish, ularni Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lanish tizimini takomillashtirib borish lozim. Bu borada mamlakatimiz va chet elda norasmiy ish bilan band bo'lgan fuqarolarni pensiya tizimiga jalb etish zarur bo'ladi. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, vaqtli matbuot va televideniye orqali aholini pensiya tizimiga jalb qilish va istiqbolda undan manfaatdorligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son, 03.09.1993.
4. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son, 02.12.2014.
5. "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son Qonun) (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'RQ-376-son. 25.09.2014. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 39-son, 488-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O'zbekiston 2008-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiyata'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2017-y. 6-son, 70-modda.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturini ishlabchiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi,
11. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tshqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrda PQ-1252-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2099-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda “2018-yilda Davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va parametrlari prognozi to‘g‘risida”gi PQ-3454-sonli qarori..

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martda “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining ish bilan bandligini kengaytirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-son Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati

samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. 2017 yil 24 may.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son Qarori bilan tasdiqlangan "Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-dekabrda 252-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomi

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

23. Karimov I.A. 2014 yil o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo'li bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2014

24. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

25. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

26. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

27. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

28. Ahmedov D.Q. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik. –T. TDYUI nashriyoti, 2008. 406 bet.

29. Allayorov Sh., Toshmuxamedova D., Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. -Toshkent, T.: Iqtisod-Moliya 2015.-248 b;

30. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 280.

31. . Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011.472 b.

32. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamgʻarmalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. - T.:«IQTISOD-MOLIYA». 2013.-112 b.;

33. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, Oʻquv qoʻllanma. T.; “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. 224b.

34. “Pensiya taʼminoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari toʻplami. –T.:Universitet. 2014.

35. Xayitov A., Ziyadulaev M. Oʻzbekistonda pensiya taʼminoti va xorijiy tajribasi. Oʻquv qoʻllanma. -T.: “Adolat”. 2009. -172 b;

36. Maʼruzalar kursi. –T. Oʻzbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2008. 162b.

37. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –Toshkent: “Noshir”, 2012 y.-712b.

38. Saidov M.X. Ijtimoiy himoya.Atamalar izoxli lugʻati. -T.: “A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxona nashriyoti”. 2004, 73-bet

39. Oʻzbekiston: Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti prinsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan taʼminlanishi.

40. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Oʻzbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi. Amaliy qoʻllanma. 2011.

41. G.Qosimova,Z.Karimova. Budjetdan tashqari fondlar. Oʻquv qoʻllanma. 2009-y.

42. Галаганов В.П. Основы страхования и страхового дела. Учебное пособие-М: Конрус, 2010г. -472 с.

43. Гурвич Е.Т. Пенсионная реформа: общие принципы и необходимые меры. Февраль 2011 г.

44. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е.

45. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. - М.: "Вузовский учебник". 2011. -224 с.

46. Никулина Н.Н. Страховой менеджмент.-ЮНИТИ,2011. -356 с

47. Игошин Н.А. Страховое право. Учебное пособие. - М.: Юнити. 2010. - 321 с.

48. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Ташкент-2005. Фан. С.355.

49. Marc Whitehead "The social security disability puzzle" 2010 y.

4. Davriy nashrlar(gazeta va jurnallar)

50. Xalq so'zi, 2017-y., 28(6722)-son

51. Dr.Catherine Zahn "Mental health needs targeted federal funds" [CMAJ](#). 2015 Nov 3; 187(16): E465–E466.

5. Internet saytlari:

52. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi);

53. www.treasury.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi);

54. www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali);

55. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);

56. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi).

57. www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi);

58. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi);

59. www.pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi);

60. www.norma.uz (Norma axborot-huquqiy portali)